

ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI

Urumboyava Z.O. Shamsiyev F.M.

**BOLALARDA BRONXIAL ASTMANING KLINIK,
IMMUNOLOGIK VA MIKROBIOLOGIK ASPEKTLARI.
DAVOLASH SXEMALARINI TAKOMILLASHTIRISH
(monografiya)**

Andijon - 2025 y

YŷK: 616.248-053.2/.5]: 577.175.1+579.61-036- 07-08

Muallif.

Urumboyeva	Andijon davlat tibbiyot instituti pediatriya
Zamiraxon	fakulteti Gospital pediatriya kafedrası,
Olimjonovna	falsafa doktori (PhD), assistant
Shamsiyev	Respublika ixtisoslashtirilgan Pediatriya ilmiy-amaliy
Furqat	tibbiyot markazi pulmonologiya kafedrası mudiri,
Muhitdinovich	t.f.d., professor

Taqrizchilar:

N.I. Karimova	RIPIATM pulmonologiya bo'limi ilmiy xodimi, tibbiyot fanlari doktori
D. N. Xolmatov	Gospital pediatriya kafedrası доцент

Monografiya Sog'liqni saqlash vaziri huzurida tashkil etilgan ilmiy texnik kengash tomonidan 2025 yil _ da _ -son bayon bilan tasdiqlangan va nashrga tavsiya etilgan.

ANNOTATSIYA

Monografiyada bronxial astma bilan kasallangan bolalarni klinik, immunologik va mikrobiologik jihatlarini har tomonlama o'rganilgan. Bronxial astma bilan kasallangan bolalarda disbioz bilan kasallanish darajasi va uning klinik, immunologik xususiyatlarini baholash asosida kasallikni davolashning prognostik mezonlari baholandi, xulosalar va amaliy tavsiyalar har tomonlama yoritilgan.

АННОТАЦИЯ

В монографии всесторонне изучены клинические, иммунологические и микробиологические аспекты детей с бронхиальной астмой. На основе оценки уровня заболеваемости и клинических, иммунологических особенностей детей с бронхиальной астмой были оценены прогностические критерии лечения, всесторонне освещены выводы и практические рекомендации.

ANNOTATION

The monograph comprehensively studies clinical, immunological and microbiological aspects of children with bronchial asthma. Based on the assessment of the incidence rate and clinical, immunological characteristics of children with bronchial asthma, prognostic criteria for treatment were assessed, conclusions and practical recommendations were comprehensively highlighted.

MUNDARIJA

Annotatsiya.....	3
Kirish.....	5
I-6o6. Bolalarda bronxial astma kasalligida sitokinlar va mikrobiotaning ahamiyati	9
II-6o6.Tadqiqotning klinik materiallari va usullarining tavsifi.....	27
III-6o6. Bronxial astma bilan kasallangan bemorlarning klinik va laborator tekshiruv natijalari	35
IV-6o6. Bronxial astmaning turli og‘irlik darajasi bilan kasallangan bemorlarda kompleks davolashning samaradorligi.....	93
Xotima	113
Xulosalar... ..	123
Amaliy tavsiyalar.....	125
Adabiyotlar ro‘yxati	126
Qisqartmalar ro‘yxati.....	139

KIRISH

BA – surunkali nafas yo‘llarining yallig‘lanishi bilan kechuvchi geterogen kasallik bo‘lib, tibbiy va ijtimoiy kasalliklardan biridir. Allergik kasalliklar tufayli bolalar orasida nogironlik asosan bronxial astma tufayli shakllanadi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma’lumotlariga ko‘ra, “...hozirda 350 millionga yaqin odam bronxial astmadan aziyat chekadi, ularning 14 foizi bolalardir. 2025-yilga kelib, bronxial astmaning global o‘ssishi 400 million kishiga yetishi kutilmoqda...”¹. Ushbu holatlar bronxial astmani global tibbiy va ijtimoiy muammo sifatida tavsiflaydi va uni har tomonlama o‘rganish zarurligini taqozo etadi.

Jaxonda BAning bolalar orasida tarqalishi turg‘un o‘ssish ko‘rsatkichlari ko‘plab mamlakatlar axolisi salomatligi uchun jiddiy muammoligicha qolmoqda. ISAAC (International Study of Astma and Allergies in Childhood) tadqiqoti natijalariga ko‘ra, BA kasalligini tarqalishi o‘rtacha 13-14 yoshli o‘smirlarda 5,3%, 7-8 yoshli bolalarda 4,7% ni tashkil etadi. Bolalarda bronxial astmani davolashning asosiy maqsadi kasallikning simptomlarini nazorat qilishga erishish, xurujlar xavfini maksimal darajaga kamaytirish, uzoq remissiyaga erishish, kelajakdagi nogironlik va letal oqibatlarni oldini olishdan iborat². Bolalarda BAni davolash standartlari, ko‘rsatmalar va samarali dorilar mavjudligiga qaramay, so‘nggi yillarda ushbu kasallikning erta yoshda kasallanishi va og‘ir kechishi tendensiyasi

¹ WHO package of essential noncommunicable (PEN) disease interventions for primary health care. Geneva: World Health.Organization; 2020. Licence: CC BY-NC-SA 3.0 IGO.

² Global Initiative for Asthma. Global Strategy for Asthma Managament and Prevention, 2024. Updated May 2024. Available from: www.ginasthma.org.

kuzatilmoqda, bu kasal bolalarning hayot sifatini pasaytiribgina qolmasdan ular orasida nogironlik sonini ortishiga sabab bo'lmoqda. Shu sababli bolalarda og'ir persistik astmani rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, shuningdek, kasallikni tashxislash va davolashda klinik, immunologik va mikrobiologik jihatlarini o'rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish va bolalar va o'smirlarga ko'rsatiladigan tibbiy yordam sifatini oshirish, allergik kasalliklarni erta aniqlash, davolash va olidini olish borasida keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. Aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish darajasini yangi bosqichga ko'tarishda mamlakatimizda onalik va bolalikni muhofaza qilishni kuchaytirish chora tadbirlari bo'yicha "...so'ngi besh yilda onalik va bolalikni tizimli ravishda muhofaza qilish, natijada ularning o'limini kamayishiga erishish..." kabi muhim vazifalar belgilangan³. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, bolalarda BANing rivojlanish xavf belgilarini aniqlash, yanada samarali tashxislash uchun og'iz-halqum va ichak mikrobiotasi, immun tizimni baxolash orqali, uning og'ir va persistik kechishini oldini olish choralari, davolash usullari, zamonaviy tibbiy xizmat darajasini oshirish hamda kasallikning asoratlarini kamaytirish imkonini beradi.

Ushbu monografiya tadqiqotlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022-2026 yillarda yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to'g'risida» 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7 dekabrda PF-5590-son «O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmonida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Sog'liqni saqlash sohasida ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2021-yil 28-iyuldagi PF-

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022 -2026-yillarda onalik va bolalikni muhofaza qilishni kuchaytirish to'g'risida» 2022-yil 25 apreldagi PQ-216 sonli qarori.

5199-son farmonida va ushbu sohada qabul qilingan boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan vazifalarni bajarishga xizmat qiladi.

Jahonda bronxial astma (BA) zamonaviy jamiyatning eng keng tarqalgan surunkali kasalliklaridan biridir (Stern J., Pier J., Litonjua A.A., 2020; Fishbein A.B., Silverberg J.I., Wilson E.J., Ong P.Y., 2020). Dunyodagi bir qancha pulmonologlar ishlarida so‘nggi yillarda pediatriya amaliyotida eng murakkab va munozarali mavzusi bo‘lgan muammolardan biri - og‘ir bronxial astma shakllarining ko‘payib borayotganligi ta’kidlanadi. Dunyo bo‘yicha 300 milliondan ziyod kattalar va bolalar bronxial astma kasalligidan aziyat chekmoqda (Hufnagl K, Pali-Schöll I, Roth-Walter F, Jensen-Jarolim E., 2020). Bronxial astma bolalarda eng keng tarqalgan surunkali kasalliklardan biri bo‘lib, kuniga 1000 dan ortiq o‘limga sabab bo‘ladi, ularning aksariyatining oldini olish mumkin (Levy M.L., Bacharier L.B., Bateman E., Boulet L.P., et al 2021). Bolalarda bronxial astma kasalligi og‘ir persistik shakllarining klinik kechishi natijasida bir qancha asoratlarni rivojlanib, bu esa bemorlarning hayot sifatini yomonlashishiga, nogironlik yoki o‘lim ko‘rsatkichini ortishiga sabab bo‘ladi (A.A. Podkoritov , V.V. Mesheryakov, V.V. Kirsanov et al. 2021). Zamonaviy konsepsiyaga ko‘ra, bronxial astmaning patogenetik asosi bronxlarning surunkali allergik yallig‘lanishi hisoblanadi. Birinchi navbatda, surunkali yallig‘lanishning paydo bo‘lishi va qo‘llab-quvvatlanishiga yordam beradigan va uning intensivligini aniqlaydigan ko‘plab molekulyar, hujayraviiy va immun mexanizmlar o‘rganishni talab etadi (Balabolkin I.I., 2023; Geppe N.A., 2021; Zaytseva O.V., 2019; Del Giacco S. R. et al 2021). Hozirgi kunda BA kasalligini o‘rganish va davolash bo‘yicha maxsus dasturlarni ishlab chiqish yuzasidan keng ko‘lamli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda (Tatochenko V.K., 2022; Xalmatova B.T., 2021; Chuchalin A.G., 2020; Casciano J., Krishnan J., 2023).

MDH davlatlarida epidemiologik tekshiruv natijalariga ko‘ra BA kasalligi bolalar va o‘smirlar orasida kattalarga nisbatan ko‘proq uchraydi 10% ga yaqin ko‘rsatkichni tashkil qiladi (Serdotetskova S.A., Fomina D.S. 2019). Bronx-o‘pka

kasalliklarning rivojlanishida nafas olish tizimi va oshqozon-ichak trakti mikroflorasi tarkibidagi o'zgarishlarning o'zaro bog'liqligini tasdiqlagan. Disbiozning mavjudligi immun tizimining funksional holatini buzilishiga olib keladi (Zolnikova O.Yu., Potsxverashvili N.D., Kudryavseva A.V., et al. 2020). Immun reaksiyasining tipi mikrobial peysajning o'zgarishiga – disbiozning darajasi va xususiyatlariga bog'liq bo'lishi mumkin. Og'iz-halqumda shartli-patogen floraning mavjudligi kasallikni keltirib chiqarishi va keyinchalik surunkali allergik yallig'lanishni paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin (Ozerskaya I.V., Geppe N.A. et al. 2021).

Mamlakatimizda allergik kasalliklar 15% dan 35 % gacha bo'lib, ularning orasida bronxial astma kasalligi 5-15%ni tashkil qiladi (Tashmatova G.A., Xalmatova B.T. 2022). Tadqiqot natijalariga ko'ra ko'pincha bolalarda respirator allergik kasallik shifokorlar tomonidan o'tkir resperator virusli infeksiya, bronxit, pnevmoniya deb tashxislanib, bemor bolalarga antibiotiklar buyurishiga sabab bo'ladi, bu esa ularda mikrobiotsenozining buzilishiga olib kelishi mumkinligi ta'kidlangan. Ichak va nafas olish tizimi mikrobiotasidagi nomutanosiblik BA patogenezida ishtirok etadigan muhim omillardan biri sifatida qaraladi (Zakirova B.I., Lim M.V., Shavazi N.M., hammualliflar bilan., 2020, Mirriximova M.X. 2019). Ma'lum bo'lishicha, probiotiklarning kamayishi hamda patogen bakteriyalarning ortishi kasallikning surunkali shakliga o'tishi va rivojlanishiga sabab bo'lib, organizmning sensibilizatsiyalanishiga hissa qo'shishi, bronxoobstruksiyani kuchaytirishi va davolash samaradorligiga ta'sir qilishi mumkin. BA bilan og'rigan bemorlarda bakterial sezuvchanlikning mavjudligi vaqt o'tishi bilan ortib boradi, ko'pincha bakterial antigenlarga nisbatan poliallergiya kuzatiladi, bu esa og'ir persistik astma rivojlanishiga sabab bo'ladi (Shamsiyev F.M., Yuldasheva I.R., Azizova N.D., et al. 2022). Hozirgi kunda bolalarda bronxial astma muammosiga bag'ishlangan yetarli miqdordagi ilmiy ishlar mavjudligiga qaramay, bronxial astma kasalligida mikrobiotsenozning nomutanosibligiga bag'ishlangan klinik tadqiqotlar soni cheklangan. BA bilan

kasallangan bolalarda klinik-immunologik, shuningdek tizimlar mikrobiotsenozini inobatga olgan holda tashxislash va patogenetik davolash usullarini qamrab olgan tadqiqot ishlarini olib borishni taqozo qiladi.

I Bob. Bolalarda bronxial astma kasalligida sitokinlar va mikrobiotaning ahamiyati

§1.1. Bolalarda bronxial astmaning rivojlanishi haqidagi zamonaviy tushunchalar

Bronxial astma (BA) bolalik davrining eng keng tarqalgan surunkali patologiyalaridan biri bo'lib, allergik kasalliklar orasida muhim o'rin egallaydi, boshqa allergik kasalliklar orasida uning ulushi 50-70% gacha yetadi. [17; 5-6-b., 20; 76-82-b., 24; 38-42-b., 30; 235-236-b.]. ISAAC (International Study of Astma and Allergies in Childhood) (2016) va ECRHS (European Community Respiratory Health Survey) ma'lumotlariga ko'ra, BAning dunyo bo'ylab tarqalishi 10-15% gacha – ularning orasida bolalar 150 mlnga yetadi. Epidemiologik tadqiqotlar ma'lumotlariga ko'ra, bolalar aholisi orasida BA tarqalishi o'rtacha 5-10% ga yetadi (AQShda 6-8%) [33; 34-41-b., 44; 198-200-b., 49; 20-25-b., 55; 40-42-b.].

O'zbekistonda BA bolalarda eng ko'p uchraydigan surunkali o'pka patologiyasi deb tan olingan, ushbu kasallikning ulushi 5% ni egallaydi. 2023-yilda dunyoda BA natijasida o'lim holati 400 000 kishini tashkil etdi, oxirgi 25-yil ichida o'lim 26,7% ga kamaydi, ammo bronxial astma bilan kasallanish darajasi oshdi. BA bilan kasallangan bolalarning 70% yengil, 25% ga yaqini o'rtacha og'irlikda va 5% og'ir kechadi. Aksariyat bemorlarga tashxis kasallik boshlangandan 2-6-yildan so'ng qo'yiladi, bu esa uning kechishini yomonlashtiradi [62; 16-20-b.].

BAning nasliyiligi shubhasiz, bemorlarning yarmida yaqin qarindoshlari allergik patologiyalar va BA bilan kasallangan. Oilada allergiyaning vujudga kelish xavfi allergik nasliy moyilligisiz 20% ga teng, agar oilada ota-onalardan birida allergik kasalliklar bo'lsa, 50% gacha, agar ikkala ota-onasi ham allergik bo'lsa,

75% gacha BA bilan kasallanish xavfi ortadi [68; 12-18-b., 75; 306-310-b., 81; 11-32-b., 91; 5-34-b.]. Bronxial astma kasallik darajasiga ko'ra, yengil, o'rta og'ir va og'ir astmaga bo'linadi, shu bilan birga, kechishiga ko'ra yengil intermitirlangan va persistik astma belgilanadi (1.1.1-jadval), BA kechishi va og'irlik darajasiga ko'ra, shuningdek nazoratlanishiga ko'ra bo'linadi [8; 12-16-b., 12; 36-40-b., 33; 34-41-b., 44; 198-200-b.]. 5 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun BA nazorati darajalari ishlab chiqilmagan [24; 36-55-b.].

1.1.1-jadval.

Bolalar BA ni og'irlik darajasi bo'yicha klassifikatsiyasi GINA- 2024

Kasallik kechishiga ko'ra tavsifi	Intermittirlangan kechishi	Persistik kechishi		
		Engil	O'rta og'ir	Og'ir
Bemoming yoshi	5 yoshdan kichik/ 5 yoshdan katta	5 yoshdan kichik/ 5 yoshdan katta	5 yoshdan kichik/ 5 yoshdan katta	5 yoshdan kichik/ 5 yoshdan katta
Kunduzgi simptomlar	Xafta davomida 2 martadan kam	Xaftada 2 martadan ko'p, lekin xar kuni emas	Xar kuni	Tinimsiz kun davomida
BA kasalligida tungi simptomlari	0 yoki 2 martadan kam 1 oyda	Oyda 1-2/ oyda 2 martako'p	Oyda 3 – 4 marta/ >xaftadan 1 marta, ammo xar tunda emas	>xaftada 1 marta/xar tunda (xaftada 7 martadan ko'p)
Qisqa ta'sir etuvchi β_2 -agonistlariga talabi	Xaftada 2 martadan kam	Xaftada 2 marta, ammo xar kuni emas	Xar kuni	Kunda bir necha marta
Bemoming fizik xarakatlarini cheklanishi	yo'q	Aynim cheklanishlar bor	Sezilarli darajada cheklanishlar bor	O'ta yaqqol cheklanishlar mavjud
O'pka faoliyati	80% dan ortiq	80% dan ortiq	60-80%	60%kam
FVC 1	Yuqori nisbiy ko'rsatkichlarda 85% dan yuqori	80% yuqori	75%-80%	75%kam
Kasallikni qo'zishi, SGKS ga talabi	Yilda 0-1marta		Yilda 2 martadan ko'p	Yilda 2 martadan ortiq

**Spirografiya tekshiruv 5 yoshdan yuqori bolalarda o'tkaziladi*

Kasallikni nazorat darajasi obyektiv klinik va funksional ko'rsatkichlarga (1.1.1-jadval) hamda 4-11 yoshli bolalar uchun AST-test (Astma nazorati testi) yoki 11 yoshdan katta bolalar va kattalar uchun ACQ (Astma nazorat so'rovnomasi) simptomlarini nazorat qilish so'rovnomasi javoblariga bog'liq. Ushbu testlar

bemorlarning o'zlari tomonidan keng qo'llaniladi va bronxial astma bilan kasallangan bemorni batafsil tekshirishdan oldin skrining testi sifatida ham foydalaniladi [55; - 89-102-b., 68; - 78-90-b.].

BA kasalligi qo'zg'atuvchi omillar, yallig'lanish modellari, og'irlik darajasi, asoratlari va davoga javob reaksiyasiga ko'ra kichik toifalarga bo'linadi, bu esa BAni tashxislash va davolashda muhim ahamiyatga ega. BAning og'ir darajasi mustaqil kichik toifa sifatida tan olingan [81; 11-32-b., 130; 16-19-b., 132; 266-272-p., 145; 73-85-p.].

Hozirgi kunda BAning salbiy oqibatlari, nazoratining yo'qligi va tez-tez kuzatiladigan xurujlarning xavf omillari o'rganilmoqda. Bular qatoriga tez-tez xurujlar bilan kechadigan persistik BA, qisqa ta'sir etuvchi β 2-agonistlarni haftasiga ikki martadan ko'p qabul qilish, kasallikni qo'zg'alish davrida faqat tizimli glyukokortikosteroidlar (SGKS) bilan davolanishi, davolash samaradorligining pastligi, tamaki chekish, qon va balg'amda eozinofilliya, komorbid fon kasalliklari va boshqalar kiradi [14; 11-18-b.; 28; 4-10-b.; 32; 77-81-b.; 50; 40-44-b.; 74; 62-69-b.].

BA kasalligi qo'zg'alish va remissiya davrlaridan iborat. Qo'zg'alish davrlari o'tkir nafas qisish xuruji yoki cho'zilgan bronxial obstruksiya namoyon bo'ladi. Nafas qisish xurujining og'rliqi "nafas olish soni, yordamchi mushaklarning nafas aktidagi ishtiroki, ko'krak qafasining emfizematoz shishi, auskultatsiya belgilari, yurak urish soni, majburiy xolati, jismoniy xarakatini cheklash darajasi" ga bog'liq [81; 11-32-b; 91; 5-34-b.; 110; 297-282-p.]. Nafas qisish xuruji uzoq davom etgan holatda nafas olishning uzoq muddatli qiyinlashuvi xos, bu bir necha kun (haftalar) davom etadi va turli og'irlikdagi keskin nafas qisish xurujlari bilan kechadi, bunday holat bronxial astmaning persistik kechuvchi shakli deb qaraladi. BA nazorat darajasiga ko'ra to'liq va to'liq bo'lmagan remissiya davrlari bo'linadi, shu bilan birga minimal darajada saqlanib qolgan simptomlar bemorlarning hayot faoliyatini pasaytirmaydi [130; 84-88-p.; 145; 29-40-p.; 165; 235-246-p.]. BA nazoratli holatiga erishilgandan so'ng, uning og'irlik

darajasini muntazam qayta baholash zarurligini esda tutish lozim. Bu baholash va bazis davolash usulini qayta ko'rib chiqish, shuningdek, tibbiy-ijtimoiy ekspertiza o'tkazish nuqtai nazaridan dolzarbdir [84; 129-130-b.; 103; 44-50-p.; 169; 746-748-p.].

2024-yilda GINA konsensusida BA ga yangi ta'rif berildi, unga ko'ra "BA - geterogen kasallik bo'lib, nafas yo'llarining surunkali yallig'lanishi, xushtaksimom xirillashlar, nafas qisishi, ko'krak qafasidagi qisilish va yo'tal kabi respirator alomatlarining mavjudligi bilan tavsiflangan, ular vaqt va intensivlik bo'yicha o'zgaruvchan va nafas yo'llarining o'zgaruvchan obstruksiya bilan birgalikda namoyon bo'ladi " dir [130; 30-31-p.; 97-110-p.].

BA ning geterogenligi bemorlarning alohida guruhlarini ajralishi va har bir fenotipni individual davosi bilan asoslanadi. Fenotip - bu "genetik omillar, atrof-muhit ta'siri va bemorning hayot tarzining o'zaro ta'siri natijasida shakllangan bo'lib, o'xshash patogenetik xususiyatlar, klinik belgilar va o'pka funksiyasi bilan namoyon bo'ladigan BAning klinik xususiyatlari yig'indisi" dir. [7; 99-102-b.; 19; 76-84-b.; 24; 93-97-b.; 33; 34-41-b.; 44; 198-200-b.].

Kasalliklarning xalqaro tasnifiga (MQB-10) ko'ra, bronxial astma 4 turga bo'linadi: allergik komponentning ustunligiga ega allergik astma (J45.0); noallergik astma (J45.1); aniqlanmagan astma astmatik bronxit (J45.9); astmatik status (J46).

GINA (2024) o'z navbatida astmani 5 turga ajratadi: allergik astma, noallergik astma, kech boshlangan allergik astma, fiksatsiyalangan bronxial obstruksiya astma va semizlik bilan bog'liq astma. Bronxial astmaning har bir turi o'ziga xos klinik simptomatik xususiyatlarga va faqat o'ziga xos markerlarga ega [130; 55-59-p.]. Ma'lumki, bronxial astma ikki asosiy patogenetik komponent bilan xarakterlanadi – bu bronxlarda persistik surunkali yallig'lanish va turli nomaxsus triggerlarga nisbatan bronxial giperreaktivlikdir. Ayrim adabiyot manbalarda bronxial giperreaktivlikka moyillik genetik jihatdan belgilangan bo'lishi mumkinligi taxmin qilinadi, tashqi omillar esa uning namoyon bo'lishiga

yordam beradi, ya'ni trigger vazifasini bajaradi [29; 65-74-b., 31; 44-48-b., 74; 62-69-b., 88; 388-399-p.].

Shunday qilib, adabiyotlarda mavjud bo'lgan ma'lumotlarga qaramasdan, bolalarda bronxial astma shakllanishiga ta'sir qiluvchi asosiy omillarni aniqlash bilan bog'liq ko'plab masalalar, ba'zi patogenetik mexanizmlar va ularni erta tashxislash usullarini ishlab chiqish masalalari pediatriyada to'liq o'rganilmagan va dolzarbligicha qolmoqda.

§1.2. Bronxial astma bilan kasallangan bolalarda sitokin statusining o'ziga xos xususiyatlari

BA patogenezining zamonaviy konsepsiyasi uning rivojlanishida immun mexanizmlarning yetakchi rolini, genetik va atrof-muhit omillari bilan bir qatorda sensibilizatsiya tufayli immun javobning o'zgarishini tan olishdan kelib chiqadi. Bolalarda bronxial astma rivojlanishida yetakchi bo'lib IgE bilan bog'liq allergik reaksiyalar hisoblanadi [35; 56-58-b., 41; 25-35-b., 70; 51-60-b.].

Erta yoshdagi bolalarning immun mexanizmlarning morfofunktsional yetilmaganligi nafaqat funksional immunitet tanqisligi asoslaydi, balki immun tizimiga antigen ta'sirlar natijasida, hayotining birinchi yilida immunopatologik reaksiyalarning erta rivojlanishiga olib keladi. Erta yoshdagi bolalarda tez-tez uchraydigan o'tkir respirator kasalliklar organizmning moslashuvchanlik imkoniyatlarini buzilishiga sabab bo'ladi [6; 69-74-b., 22; 6-13-b.].

Allergiya T-hujayralarni disbalansi va IgE ishlab chiqarilishining ortishiga sabab bo'ladi. Th1 interferon IFN- γ ni, Th2 esa IL-4, IL-5 va IL-13 ni ishlab chiqaradi. Th2 turi ustivorlik qilganda, IFN - γ Th1 turidagi sitokinlarga nisbatan ko'proq sintezlanadi. Erta bolalikdagi bunday nomutanosiblik turg'un bo'lishi mumkin, shu sababli hayotning dastlabki oylari allergiya uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega hisoblanadi [27; 45-52-b., 41; 25-35-b.].

Atopik fenotipning dastlabki belgilari antinatal davrida kuzatiladi - ona IgE va IgG antitelalari, homila qog'onoq suvidagi sitokinlari, homila-yo'ldosh atrofida allergen mavjud bo'lganda allergiyaning rivojlanishiga turtki bo'ladi [12; 29-39-

b.]. BA patogenezida apoptotik jarayonlar kuzatilishi manfiy faollashuv buzilishi bilan kechadigan ikkilamchi immunosupressiya katta rol o'ynaydi [22; 13–16-b.]. Sitokinlar ishlab chiqaruvchi hujayralarning haddan tashqari faollashuvi interleykinlar va boshqa yallig'lanish mediatorlarining ortiqcha ajralishiga olib kelishi mumkin. Keyinchalik haddan tashqari faollashgan makrofaglar va boshqa sitokin ishlab chiqaruvchi hujayralar tomonidan sitokinnlarning nazoratsiz chiqarilishi og'ir oqibatlariga olib keladi. Sitokinlar boshqa yallig'lanish mediatorlari bilan birgalikda organizmning immun himoya omillaridan agressiya omiliga aylanadi. BA da sog'lom bolalardan farqli o'laroq, yallig'lanishga qarshi 5-seriyali leykotriyenlarga nisbatan 4-seriyali yallig'lanishga qarshi leykotriyenlarning hosil bo'lishi ustuvor bo'ladi [39; 112-118-b., 41; 25-35-b.].

Shunday qilib, yallig'lanishga qarshi sitokinlar muvozanatining buzilishi infeksiyaga qarshi himoyaning keng ko'lamli nuqsonlarini, "immunologik falajlik" holatini keltirib chiqaradi, mikroorganizmlar va toksinlarning o'pkaga bo'lgan zararli ta'sirini kuchaytiradi [141; 772-779-p., 146; 62-95-p.].

Hozirgi kunda T-limfotsitlar miqdorining kamayishi sabablaridan biri sifatida ularning apoptoz tipida zararlanish mexanizmi ko'rib chiqilmoqda. Apoptoz to'qimali muvozanatni ta'minlash uchun muhim hisoblanadi. Uning yordamida organizmning himoya reaksiyasini ta'minlaydi, autoreaktiv T-limfotsit-killerlarni chiqarib yuboradi va shu orqali organizmning o'z hujayralarining shikastlanishini cheklaydi. So'nggi paytlarda apoptoz va uning turli patologik jarayonlarga ta'siri haqida ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Apoptozning bosayishi morfogenezga, genetik nuqsonlari bo'lgan hujayralarning eliminatsiyasiga, autotolerantlikka ta'sir qiladi va rivojlanish nuqsonlari, autoimmun jarayonlar va xavfli o'smalar rivojlanishiga olib keladi [41; 25-35-b., 70; 51-60-b., 78; 92-103 b.]. Apoptotik hujayralarning ortib ketishi ikki holatga olib keladi: birinchidan, apoptotik hujayralar yuzasidagi o'z antigenlari begona sifatida qabul qilinadi; ikkinchidan, yallig'lanishni qo'zg'atuvchi sitokinlar yallig'lanishga qarshi sitokinlar bilan almashadi. Bu, shubhasiz, uzoq muddatli

Th2-immun javobining rivojlanishiga yordam beradi [13; 223-224-b., 39; 112-118-b., 41; 25-35-b., 104; 868-872-p., 141; 772-779-p.].

Shunday qilib, ilmiy adabiyotlar ma'lumotlari shuni ko'rsatmoqdaki, hozirgi kunda bolalardagi BA muammosi dolzarb va muntazam o'rganilayotgan masaladir. BOS va BA faollashuv mezonlari va sitokin maqomini o'rganish, BOS ning BA ga transformatsiya mezonlarini ishlab chiqish, shuningdek, anamnezida qaytalanuvchi BOS epizodlari mavjud bolalarni uzoq muddatli prospektiv kuzatish uchun faollashuv mezonlari va sitokin statusini o'rganish zaruriyati mavjud.

§1.3. Bolalardagi bronx-o'pka patologiyasini rivojlanishi va bronxial astmaning patogenezida mikrobiotaning ishtiroki Bolalarda bronxial astmaning rivojlanishida ichak mikrobiotasining roli

BA kasalligi bir necha o'n yillardan beri olimlar e'tiborini o'ziga tortib kelmoqda. Hozirgi vaqtda ko'plab ilmiy tadqiqotlar kasallikning paydo bo'lishi va rivojlanishida mikrobiotaning rolini o'rganishga qaratilgan. Bolalikning dastlabki yillarida mikroblarning ta'siri barcha allergik kasalliklar, shu jumladan BA rivojlanishida hal qiluvchi omil ekanligi ko'rsatilgan [47; 57-61-b., 56; 30-38-b., 60; 46-50-b.]. Bu "gigiyenik gipoteza" deb nomlanuvchi nazariyaning ishlab chiqilishiga olib keldi. Ushga ko'ra, haddan tashqari tozalik va kasallik qo'zg'atuvchilar ta'sirining kamayishi immun tizimining noadekvat javob berishiga sabab bo'ladi. Hayotning dastlabki uch haftasida antibakterial dori vositalarini qo'llash voyaga yetgan laboratoriya hayvonlarida nafas yo'llarining allergik yallig'lanish kechishini yomonlashishi aniqlangan. Chishimba L. rahbarligi ostida mualliflar guruhi tomonidan steril hayvonlarda (ichak bakteriyalari bo'lmagan) Th2-sitokinlar va IgE sonining ko'payishi bilan birga kechuvchi allergenlar ta'siriga sezilarli darajada yuqori sezuvchanlikni aniqlashga erishgan [58; 216-228-b., 60; 46-50-b., 76; 71-76-b., 106; 1462-p., 119; 52-65-p.].

Allergik sensibilizatsiyani rivojlanishida *Lactobacilli*, *Bacteroidetes* va *Bifidobacteria* bakteriyalarining kamayishi va *Soliform*, *Clostridia* va *Enterococci* bakteriyalarining ortishiga katta ahamiyat kasb etadi. Ege M.J., Mayer M., Normand A.C. izlanishlarida BAli bolalarda *Clostridium d.* ning ba'zi turining ortishi va ichak mikrobiotasida bifidobakteriyaning oz miqdori aniqlangan. Kattalar populyatsiyasida tadqiqot natijalari, shuni tasdiqlaydiki, allergik kasalliklar va bronxial astma bilan kasallangan bemorlarda sog'lom guruh bilan taqqoslanganda foydali va potentsial zararli bakteriyalar miqdorini o'zgarishini tasdiqlaydi. Muayyan bakterial guruhlarning tahlili astma bilan kasallangan bemorlarda umumiy bifidobakteriyalar, xususan *B. adolescentis* miqdorining sezilarli miqdorda pastligini aniqlash imkonini berdi [46; 118-125-b., 57; 16-23-b., 67; 54-59-b., 122; 701-709-b., 126; 592-602-b.].

Tez sur'atda rivojlanayotgan eksperimental va klinik tadqiqotlar ichak mikrobiotasi o'pkadagi immun javobni boshqarish va qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynashini ko'rsatmoqda. Ushbu reaksiyalarning mexanizmi ko'plab omillarning murakkab o'zaro ta'siridan iborat. Masalan, sinantrop bakteriyalar va ularning metabolik mahsulotlaridan keladigan signallar TLR bilan o'zaro ta'sirlashib, yadroviy transkripsiya omili (NF- κ B) ning effektor funksiyalarini faollashtiradi, shuningdek, dendrit hujayralari (DH), regulyator limfotsitlar (Treg), xemokinlar va sitokinlar bilan ta'sdiqlangan. Mikroflora tomonidan boshqariladigan reaksiyalarning kaskadi bronx-o'pka tizimining immun javob turini shakllantirishda muhim rol o'ynashi mumkin [76; 71-76-b., 86; 309-324-p., 93; 15-37-p., 97; 1487-1495-p., 100; 403-547-p.].

Adabiyotlarda bakterial metabolitlarning immun javobini shakllantirishdagi ta'siriga katta e'tibor berilmoqda. Nafas yo'llari bakterial metabolitlari giperreaktivligini kamaytirish mexanizmi oxirigacha o'rganilmagan. Ratsionida fermentatsiya bo'lgan ozuqa moddalarining mavjudligi hamda ularning laboratoriya sichqonlarining ichak mikroflorasi tarkibiga ta'sir etishi, Firmicutes va *Bacteroidetes* bakteriyalari nisbatini o'zgartirishi, shuningdek ichakdagi qisqa

zanjirli yog‘ kislotalari konsentratsiyasini ortishi, xususan proprionatni oshganligi Ferreira C. va hamkasblari tomonidan aniqlangan. Parxezda ko‘p miqdorda kletchatka tutgan mahsulotlar bilan oziqlangan sichqonlar allergik reaksiyalardan himoyalangan [105; 957-963-p., 114; 245-257-p., 124; 10-22-p., 131; 1193-1201-p.]. Kåhrstro‘m C.T., Pariente N., Weiss U. boshchiligidagi bir guruh mualliflar tomonidan qiziqarli tadqiqot e‘lon qilingan. Ular o‘z ishlarida bakterial metabolitlarning neytrofillarning G-oqsil bog‘lovchi retseptorlari bilan o‘zaro ta‘sirini ko‘rsatdilar. GPR41 stimulyatsiyasiga nisbatan GPR43-retseptorlarini stimulyatsiyasida eozinofillar miqdori va bronxoobstruksiya belgilari prinsipial ravishda kamroq ekanligi aniqlandi. Tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, bu yallig‘lanishga qarshi mediatorlarining ishlab chiqarilishi ortishi bilan bog‘liq [135; 372-381-p., 139; 47-54-p., 152; 158-164-b.]. Adabiyotda tasvirlangan bakterial metabolitlarning yana bir ta‘sir mexanizmi CD4+Foxp3 regulyator hujayralarini rag‘batlantirish bo‘lib, yallig‘lanishga qarshi sitokinlar ishlab chiqarishning kamayishiga va Th-1-turdagi hujayralarga immun javobining modulyatsiyasiga olib keladi [40; 310-317-b., 43; 32-46-b., 60; 46-50 b., 93; 15-37-b.].

Ichakning shilliq qavatidagi o‘zgarishlar yuz berishi natijasida gistaminni metabolizatsiya qiluvchi gistaminaza va diaminoksidaza fermentlarining me‘yoriy darajada ishlab chiqarilmasligi, ichakning o‘tkazuvchanligi oshishi bilan gistaminning ortiqcha so‘rilishiga olib keladi. Bu esa, ehtimol, ba‘zi bemorlarda bronxospazm simptomlarining kuchayishiga sabab bo‘ladi. BA sababli o‘pkaning ventilyatsiyasi va perfuziyasidagi o‘zgarishlar, mikroflora tarkibining buzilishiga qo‘shimcha ravishda ta‘sir ko‘rsatadi. Shuningdek, organizmdan CO₂ va H₂ gazlarining chiqarilishi kamayishi, ichki muhitning oksidlanish-qaytarilish potentsiali (Eh) o‘zgarishiga olib kelishi mumkin. Bu esa mikroorganizmlarning turli guruhlarining ko‘payish sur‘atiga hamda, ular tomonidan yuzaga keltiriladigan biokimyoviy jarayonlarning yo‘nalishiga ta‘sir qiladi [47; 57-61-b., 56; 30-38-b., 135; 372-381-b., 140; 16-31-p., 170; 163-174-p.]. Ilmiy

adabiyotlarda ichak mikrobiotasi inson tabiiy bioritmlari bilan o'zaro bog'liqligi haqida ma'lumotlar keltirilgan [60; 46-50-b., 76; 71-76-b., 87; 2147-p., 105; 957-963-p., 113; 1398-1405-p.]. Eksperimental sichqon modelida uyqu va uyg'oqlik davrida fekal mikrobiotaning taksonomik ko'pligi ritmikligining o'zaro bog'liqligini ko'rsatishga muvaffaq bo'lindi. Shuningdek, ichak mikrobiotasi insonni sirkad ritmlarini o'zgartirishi mumkinligi va shu bilan birga serotonin, dopamin, melatonin kabi neyrotransmitterlar ishlab chiqarilishiga ta'sir qilishi mumkinligi mualliflar tomonidan aytib o'tilgan.

Bolalardagi respirator allergiyada o'g'iz-halqum shilliq qavat mikrobiotasining roli. Nafas yo'llari kasalliklari mikroorganizmlar kabi tashqi omillar, shuningdek tizimli ichki omillar tomonidan yuzaga keladi. Bulardan immun tizimi eng muhim ahamiyatga ega hisoblanadi [32; 77-81-b., 58; 216-228, 61; 669-678-b., 66; 914-917-b.]. Og'iz-halqum shilliq qavatida mikroflorasining miqdoriy va sifat jihatidan o'zgarishlari immun tizim faoliyatining buzilishi natijasi bo'lishi hamda immun reaksiyalarni ishga tushuruvchi omil bo'lishi ham mumkin. Ba'zi mualliflarning nuqtai nazaridan, nafas yo'llarining allergik kasalliklarida ham mikrobli manzarasini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Birinchidan, disbiotik buzilishlar aniqlanganda, ularni korreksiya qilish orqali immun yallig'lanishning rivojlanishini bartaraf etish mumkin. Ikkinchidan, allergiyada og'iz-halqum shilliq qavatining bakterial xususiyatlarini aniqlash orqali, nafas yo'llarining zararlanish darajasi va genezini hisobga olgan holda, patologiya rivojlanishining prediktorlarini aniqlash mumkin [137; 1099-1110-b., 140; 16-31-b., 151; 692-710-b.].

Shubhasiz, nafas olish allergiyasi rivojlanganda, mikrobiotsenozda o'zgarishlar yuz berishini kutish mumkin. Ushbu masalaga oid adabiyotlarni o'rganib chiqilganda, mahalliy immunitet o'zgarishlarining tendensiyalari va ko'rib chiqilayotgan mikrobiologik patologiyalarning har biri uchun o'ziga xos o'zgarishlar to'g'risida o'xshash fikr uchramadi. Shartli patogen mikroorganizmlarning yiringli-septik asoratlarni keltirib chiqarish xususiyati

nafaqat qo'zg'atuvchining virulentlik xususiyatlari bilan, balki makroorganizmning himoya kuchlarining zaiflashishi bilan ham bog'lashadi. So'nggi yillarda allergiya va infeksiya o'rtasidagi munosabat faol o'rganilmoqda. Atopik bemorlarda aynan doimiy infeksiya surunkali allergik kasalliklarning shakllanishiga asos bo'luvchi "aylanma muammo"ni paydo bo'lishiga sabab bo'ladi, degan qarash mavjud. Ushbu tadqiqotchilar maktabining izlanishlari allergik bemorlarda bakterial antigenlarga qarshi IgE-antitanalar mavjudligini isbotlab berdi. [27; 45-52-b., 35; 56-58-b., 43; 32-46-b.]. Allergik rinitda ko'pincha shartli-patogen floraning miqdori ko'payishi shu jumladan *S. aureus*, *S. epidermidis*, *S. haemolyticus* va *Enterococcus* oilasi miqdori ortganligi ko'rsatiladi. Bunda, sog'lom guruhda shartli-patogen mikroorganizmlar faqat 36% holatlarda aniqlangan [43; 32-46-b., 58; 216-228-b., 61; 669-678-b.].

Shilliq pardada polipoz o'zgarishlarning paydo bo'lishi va keyinchalik burun hamda og'iz-halqum poliplarining shakllanishini surunkali infeksiyon-allergik rinit va faringitlarda kuzatiladigan immunopatologik o'zgarishlar oqibatida, bakteriyalar progressivlanuvchi respirator kasalliklari yallig'lanish rivojlanishida ishtirok etishi mumkin. Rinosinusit bilan og'rigan bemorlarning bitta bakterial antigenga nisbatan 27,3% da, bir nechta bakterial antigenlarga nisbatan 54,2% da teri sinamalari ijobiy natija ko'rsatgan. Bu bemorlarda ko'pincha stafilokokk va streptokokga nisbatan yuqori sezuvchanlik kuzatilgan [61; 669-678-b., 76; 71-76-b., 86; 309-324-p., 94; 1479-1492-b.].

Tilla rangli stafilokokk BA tashxisi qo'yilmagan ko'plab odamlarda mavjud bo'lib, inson populyatsiyasining deyarli uchdan bir qismida burun dahlizi va og'iz-halqumini egallaydi. U polip bilan kasallangan bemorlar orasida tez-tez uchrashidan tashqari, sepsis va endokardit kabi ko'plab boshqa kasalliklar va kasalxona ichi infeksiyalarini keltirib chiqaradi. Ko'pincha polip bilan kasallangan bemorlarning og'iz-halqum muhitida stafilokokkning mavjudligi qayd etilgan bo'lsada, rinosinusitlar etiologiyasida uning aniq roli noaniq ta'kidlanmoqda [99; 30-57-b., 105; 957-963-b., 113; 1398-1405-b., 116; 87-96-p.]. Tillarang

stafilokokk enterotoksini superantigen rolini o'ynashi mumkin deb taxmin qilinadi, bu poliplarning shiddatli o'sishiga olib keladi va bronxial astma simptomlarining rivojlanishini kuchaytiradi [123; 39-47-p., 131; 1193-1201-p., 139; 47-54-p.].

Allergik kasalliklari bo'lgan bemorlarning taxminan 50% da limfotsitlarning superantigen ta'siriga mos javoblari mavjud. Bundan tashqari, 23 nafar burun polipi bo'lgan bemordan 18 tasida stafilokokk toksinlariga xos IgE aniqlangan. Biroq, stafilokokk enterotoksinlari etiologik omil bo'lib hisoblanadimi yoki kasallikni faqat o'zgartirib qo'yadimi, buni noma'lum. Burun poliplarida IgE miqdorining ortishi uchuvchan agentlar keltirib chiqaradigan allergik reaksiya emas, balki superantigen vazifasini bajaruvchi *Staphylococcus aureus* enterotoksini ajralishi bilan bog'liq, chunki allergik sensibilizatsiya to'qimada eozinofiliya va mediatorlar miqdorini oshirmaydi [32; 77-81-b., 58; 216-228-b., 61; 669-678-b., 66; 914-917-p.].

Shartli-patogen mikrofloraning ayrim vakillarini (*Neisseria spp.*, *Streptococcus spp.*, *Staphylococcus spp.*) bronxial astma, eshakem (torvoq) va atopik dermatit orasidagi bog'liqlik aniqlangan. Infeksiya qo'zg'atuvchilari tuzilishining bunday o'zgarishi ko'p jihatdan immunobiologik statusning, makro- va mikroorganizm munosabatlarini buzilishi, mikrobiotaning xarakteri hamda bakterial infeksiyalar (stafilokokk va boshqa infeksiya) persistensiya va latent kechish imkoniyatlariga bog'liq [137; 1099-1110-b., 140; 16-31-b., 151; 692-710-b.].

Stafilokokklar infeksiya qo'zg'atuvchilariga mansub bo'lib, organizmning qarshiligining pasaygan sharoitida faollashadigan yuqumli patogen hisoblanadi, bu ayniqsa respiratorli infeksiyalar paytida namoyon bo'ladi. Ko'pgina mualliflar lor kasalliklari etiologiyasida stafilokokkning muhim rolini isbotladilar. Insonlar uchun asosan, koagulo-musbat stafilokokklar - *S.aureus* koagulo-manfiy stafilokokklar, kasalliklar sabab bo'lishi mumkin - *S.epidermidis*, *S.haemolyticus* va boshqa saprofit turlari asosiy o'rindagi patogen bo'lishi mumkin [61; - 669-678-b., 76; 71-76-b., 86; 309-324-b., 94; 1479-1492-b.]. Tadqiqotda stafilokokklar va streptokokklar oilasining mikroorganizmlari ko'p uchradi. Allergik kasalliklarda

ham stafilokokklar tarkibining 10^6 KOE/ml gacha (norma 10^3) ko'tarilishi xarakterlidir. Aksariyat stafilokokklar turlarini identifikatsiya qilinganda ko'pincha *S.aureus* va *S.epidermidis* 10^5 (KOE/ml) gacha teng miqdorda ifodalangan [27; 45-52-b., 35; 56-58-b., 43; 32-46-b.].

Shunday qilib, burun shilliq qavatining mahalliy immuniteti, nafasda olinayotgan patogenlarning organizmga kirishi va tizimli yallig'lanish reaksiyasining rivojlanishiga bog'liq. Bunga asoslanib, burun bo'shlig'i va og'iz-halqumdagi tez-tez (surunkali) yallig'lanishlar immun tizim yetishmovchiligining birinchi belgisi bo'lishi mumkin.

§1.4. Bolalarda bronxial astmaning tashxisoti va zamonaviy davolash usullari

Bolalarda bronxial astma muammosi bo'yicha tadqiqotlarni rivojlantirishning hozirgi bosqichini klinik-anamnestik, bronxologik, funksional va immunologik usullardan kompleks foydalanmasdan tasavvur qilib bo'lmaydi, bu esa chuqur diagnostika o'tkazish imkonini berdi va kasallikning ilmiy va klinik ma'lumotlarni to'plashga yordam berdi [4; 87-93-b., 8; 40-47-b., 14; 11-18-b., 19; 76-84-b.]. BA diagnostikasi klinik-anamnestik ma'lumotlar, fizikal tekshiruv natijalari, allergologik status, ko'krak qafasining rentgenografiyasi, tashqi nafas faoliyati (TNF) natijalariga asoslanganligi: pikfulometriya va spirometriya, ularning texnikasi va texnologiyasi muntazam ravishda takomillashmoqda. Hayotning dastlabki ikki yilligida bolalarda BA tashxislash uchun allergik kasalliklar bo'yicha asoratlanganligi muhim ahamiyat kasb etadi [19; 76-84-b., 24; 16-23-b., 28; 4-10-b.]. Bolalarda astmaning klinik diagnostikasi epizodik ekspirator xansirash, xushtaksimon xirillash, ko'krak qafasidagi qisilish xissi, yo'tal kabi kasallikga xos belgilarga asoslanadi [33; 34-41-b., 42; 1452-1459-b.]. Kasallikning nafas qisishi xurujlari kabi tipik ko'rinishi kasal bolalarning aksariyatida kuzatiladi [44; 198-200-b.].

Bolalarda bronxial astmada allergologik tashxisot. BA rivojlanishiga hissa qo'shishi mumkin bo'lgan ko'plab allergik omillarning ahamiyatini inobatga

olgan holda, allergologik statusni baholash kasallikni tashxislashda muhim qismi bo'lib hisoblanadi [48; 77-79-b., 49; 112-146-b., 55; 30-34-b.]. Bir tomondan, sababchi bo'lgan allergenni aniqlash va uni eliminatsiya qilish choralarini o'tkazish imkoniyati, boshqa tomondan, ijobiy test natijalariga ko'ra astmaning allergik fenotipini aniqlash, kasallikni davolash bo'yicha (allergenga maxsus immunoterapiya - ACIT) to'g'ri qaror qabul qilishga imkon beradi va tipik respirator simptomlarini differensial tashxisi bilan bronxial astma foydasiga tashxislash imkonini beradi. Allergiya diagnostikasi anamnestik ma'lumotlarning fizikal va paraklinik tekshiruvlarini mukammal yig'ishdan tashkil topadi [63; - B.65-67 b., 81; - B. 11-32].

Bolalarda bronxial astmani tashxislashning funksional va boshqa instrumental, laborator usullari. Bronxial obstruktiv turdagi bronxial daraxtdagi o'zgarishlarni aniqlash tashqi nafas faoliyatini (TNF) o'rganish usullari yordamida aniqlash BA diagnostikasini isbotlashda ajralmas qism hisoblanadi. Spirometriya, o'pkalarni hajmi va tezliklarini o'rganish bo'yicha «oltin standart» bo'lib, ventilyatsion yetishmovchilikning turini va darajasini aniqlash imkonini beradi [2; 14-23-b., 38; 113-115-b., 45; 661-663-b.]. Astma bilan kasallangan bemorlarni davolashda bemor holatini nazorat qilish va belgilangan davolash samaradorligini baholash uchun monitoring zarur. Buning uchun portativ qurilma - l/min bilan o'lchangan nafas chiqarishning eng yuqori tezligini (NChEYT) aniqlaydigan pikfulometr ishlatiladi. [52; 60-64-b., 69; 59-67-b.]. Pikfulometriyadan (PFM) olingan natija meyoriy ko'rsatkich bilan solishtiriladi va uning % da ifodalanadi. Bunda meyoriy ko'rsatkichlarga ($\text{NChEYT fakt.} / \text{NChEYT kerak.} \times 100\%$), $\text{NChEYT fakt.} \geq 80\%$ NChEYT kerak ko'rsatkichlari hisoblanadi [73; 28-34-b., 77; 83-88-b.]. Bu usul kunlik va haftalik o'zgaruvchanlikni baholash imkon beradi. Normada va bronxial astmaning xurujlararo davrida NChEYT tebranishlari 20% dan kam bo'ladi. Kasallik dinamikasining baxolanishi "zonalar tizimi" yoki "svetofor prinsipi" asosida amalga oshirildi [73; 28-34-b.].

Yangi texnologiyalar va farmatsevtika imkoniyatlari ilgari surilgan astma terapiyasining asosiy tamoyillariga qarashni o'zgartirishga imkon berdi [62; 159-b., 68; 134-b., 81; 11-32-b., 130; 149-154-p.]. 5 yoshgacha bo'lgan bolalarda astmani davolash uchun to'rt pog'onali, 5 yoshdan oshgan bolalar uchun besh pog'onali qo'llaniladi, bunda yondashuv yuqoriga yoki pastki pog'onalar bilan korreksiyalash imkoniyati kasallikni og'irlik darajasiga qarab qo'llaniladi. Bazis terapiyaning bosqichma-bosqichligi kasallikni muntazam baholashni va terapiya hajmini samarasini qayta ko'rib chiqishni nazarda tutadi, shuningdek terapiyaga javob 2-3 oydan keyin yoki klinik zaruratga qarab nazoratga erishilgunga qadar baholanadi [130; 19-26-b.; 132; 266-272-b.].

Allergik kasalliklarni davolashda probiotiklarni qo'llashning samaradorligi. Probiotiklarning bronxial astma kechishiga ijobiy ta'siri asosidagi aniq mexanizmlar to'liq aniqlanmagan bo'lib, asosan ularning ko'p qirrali ta'siri nuqtai nazaridan ko'rib chiqilmoqda [36; 68-70-b., 56; 30-38-b., 135; 372-381-b.].

Probiotiklar, patogen bo'lgan mikroorganizmlarning retseptorlari bilan raqobatlashib ularning ichak devorlariga yopishishini to'xtatadi, hamda, bakteriotsinlar va organik kislotalar ishlab chiqaradi, vodorod peroksid va azot oksidi sintezini amalga oshiradi. Probiotik shtammlarining juda muhim bo'shliq ta'siri, ularning ichakdagi pH darajasi orqali yuzaga keladi. Ular mutsin sintezini oshirib, miofibrillar oqsillar ishlab chiqarilishini kuchaytirib, epiteliylararo zich aloqalarni tiklaydi va shu orqali shilliq qavatning regeneratsiyasiga yordam beradi [37; 612-619-b., 43; 32-46-b.]. Probiotiklarning sezilarli ijobiy ta'siri mikrofloraning metabolik faolligini yaxshilashdir. Probiotik bakteriyalar IgA sekretsiasini kuchaytiradi, IgG miqdorini pasaytiradi va Tollga-o'xshash retseptorlari genlari va nukleotid oligomerizatsiya retseptorlari genlar ekspressiyasini o'zgartiradi [58; 216-228-b., 60; 46-50-b., 93; 15-37-b.].

B.P. Ganesh va boshqa mualliflar astma kasalligini sichqoncha modelida *Lactobacillus reuteri* LGG va *Bifidobacterium breve* qo'llanilishi nafas yo'llarining giperreaktivligini va bronxoalveolyar lavaj va o'pka to'qimalarida

yallig'lanish hujayralari miqdorini kamaytirishini ko'rsatdi. Steril laboratoriya hayvonlariga bakteriyalar ko'chirib o'tkazilganda, sekretor IgA va CD4+ T-hujayralarining faollashuvi IgE miqdorini pasayishiga olib keladi. Bundan tashqari, probiotiklar qo'llanilgandan so'ng dendrit hujayralarining IL-10 ishlab chiqarishi aniqlangan. Bu o'z navbatida T-regulyator limfotsitlarning (T-reg) shakllanishi va yashab qolishiga ko'maklashadi, natijada immun tizimning o'zaro ta'sirlari Th1- tomon siljishiga olib kelgan [100; 403-547-p., 114; 245-257-p.].

Eksperimental tadqiqotlar natijasida, laktobakteriyalarning turli shtammlarini qo'llash orqali atopik dermatitni oldini olishda samarali natijalar ko'rsatdi. Bunga IgA ishlab chiqarishni oshirish, IgE darajasini pasaytirish va Th2 fenotipli sitokinlarning sekretsiasini pasaytirish kiradi. Bundan tashqari, W. Feleszko va hammualliflarining tadqiqot natijalariga ko'ra, laboratoriya hayvonlariga erta yoshda *Lactobacillus rhamnosus* GG berilishi, katta yoshdagi hayvonlarda nafas yo'llarining allergik reaksiyasini susaytirishi aniqlangan bo'lib, bu holat regulyator T-hujayralarning Foxp3 geni ekspressiyasining ortishiga bog'lashgan. *Lactobacillus rhamnosus* GG o'pka to'qimasida matritsali metalloproteinaza (MMP9) ekspressiyasini kamaytiradi va yallig'lanish infiltratsiyasini pasaytirgan [113; 1398-1405-p., 116; 87-96-p.].

Tadqiqotchilar tomonidan 6 oy davomida astma, ekzema va rinit rivojlanish xavfi yuqori bo'lgan yangi tug'ilgan chaqaloqlarda *Lactobacillus rhamnosus* GG preparati tavsiya etilgan va 5 yil davomida kuzatilgan. Tadqiqotlar natijasiga ko'ra, 2 yoshga to'lganda LGG probiotiklarini qabul qilgan guruhda ekzema bilan kasallanish darajasi 28,7% ni tashkil etdi, nazorat guruhida (probiotiklarsiz) esa bu ko'rsatkich 30,9% bo'ldi. 5 yoshida astma bilan kasallanish darajasi nazorat guruhida 17,4% (probiotiksiz) va LGG guruhida sezilarli darajada past 9,7% tashkil etgan. Shunday qilib, mualliflar LGG ni qabul qilgandan so'ng bolalarda atopiyaning rivojlanish xavfi kamayadi degan xulosaga kelishdi [36; 68-70-b., 94; 1479-1492-b.].

Ba'zi tadqiqotlar natijalari oziq-ovqat allergiyasini davolashda probiotiklarning samaradorligini tasdiqlaydi, chunki ular ichak epiteliyal baryerining butunligini tiklaydi, ichakdagi yallig'lanish jarayonlarini kamaytiradi va shilliq qavatda IgA ishlab chiqarishni rag'batlantiradi. 2013-yilda probiotiklarning bolalarda astma va atopik sensibilizatsiya rivojlanishiga ta'sirini o'rganishga qaratilgan tizimli sharh nashr etildi [76; 71-76-b., 86; 309-324-b., 100; 403-547-b.]. Allergik kasalliklarni davolash va oldini olishda probiotiklarning samaradorligini baholovchi tadqiqot natijalarining ziddiyatli bo'lishi, shtamlarning xilma-xilligi, davolash muddatlarining farqliligi, hamda dori vositalarining turli dozalarda qo'llashga bog'liqdir. Ushbu farqlarni tushuntirishda mikrobiotaning individual tarkibi, organizm va atrof-muhit omillari, ovqatlanish odatlari, ilgari qo'llanilgan antibiotiklar, probiotiklar va boshqa ko'plab omillarni hisobga olish zarur [114; 245-257-b., 124; 10-22-b.].

Yuqorida bayon etilgan barcha ma'lumotlarni umumlashtirib, bolalarda bronxial astma muammosining dolzarbligini ta'kidlash lozim, bu esa kelgusida yanada chuqurroq ilmiy tadqiqotlar o'tkazilishini taqozo etadi. Zamonaviy tadqiqot usullarining imkoniyatlarini har tomonlama kompleks o'rganish: mikrobiologik, immunologik va funksional hamda og'ishlarni o'rganish eng istiqbolli bo'lib, bu o'zgarishlarning patogenetik asoslangan korreksiyasini to'g'ri ishlab chiqish uchun alohida ahamiyatga ega bo'ladi, bu esa kasallikning qo'zg'alish chastotasini kamaytirishga va progressivlanishini sekinlashtirishga, remissiya davrlarini uzaytirishga ko'maklashadi, bu esa oxir-oqibat kasallanish, bolalar nogironligi o'sishini kamaytiradi, o'sib kelayotgan avlodning faol to'laqonli hayotini va salomatligini shakllantirishni ta'minlaydi.

II-BOB. TADQIQOTNING KLINIK MATERIALLARI VA USULLARINING TAVSIFI

§2.1. Tekshirilgan bolalarning umumiy tavsifi

Tadqiqot ishi bosqichda amalga oshirildi. Bolalarda bronxial astmaning uchrash chastotasini aniqlash uchun qo'yilgan vazifalarni hisobga olgan holda, I bosqichda 2019-2022-yillar davomida Andijon viloyati bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazi erta yoshli patologiya, pulmonologiya bo'limida va Respublika ixtisoslashtirilgan pediatriya ilmiy amaliy markazning allergologiya bo'limlarida statsionar davolangan 1854 nafar bemorlarning kasallik tarixini o'rganib chiqildi (retrospektiv tahlil) (bosh vrachi Raxmonov S.G., pulmonologiya bo'limi mudiri-Sarimsaqova M.I.). Bronxial astma (BA) bolalarda 17,9 foizida (331) uchraydi.

II bosqichda esa tanlab olingan bolalar guruhini to'liq klinik va laboratoriya, funksional, immunologik va mikrobiologik o'rganish amalga oshirildi. 2022-2024 yillar davomida Andijon VBKTTM Pulmonologiya va RIPIATM allergologiya bo'limida 5 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan 130 nafar bolada prospektiv tekshiruv amalga oshirildi. Ularga 47 nafar bemor engil persistik bronxial astma (BA YPK), 45 nafar bemor o'rtacha og'irlikdagi persistik bronxial astma (BA O'OPK), 38 nafar bemorga og'ir persistik bronxial astma (BA OPK) tashxisi qo'yilgan. Nazorat guruhi xuddi shu yoshdagi 30 nafar sog'lom bolalardan ibor. Tadqiqotda bronxial astma bilan kasallanish o'g'il bolalar ustunlik qildi, bu populyatsion genetikaning erkak genotipi stress sharoitida organizmning zaxira imkoniyatlariga kamroq ega ekanligi bilan izohlanadi, bu olimlar fikriga mos keladi.

Bronxial astma tashxisi, astmaning og'irlik darajasi va nazoratining baholash GINA (2024) xalqaro konsensus hujjatlarida belgilangan diagnostika mezonlari va zamonaviy tasnifiga muvofiq qo'yildi. Shuningdek, bolalarda bronxial astmani

tashxislash va olib borish taktikasi bo'yicha milliy klinik protokoldan foydalanildi. BA tashxisi kompleks klinik va instrumental tekshiruvlar asosida tasdiqlandi, jumladan, diqqat bilan yig'ilgan anamnez, klinik-laborator va instrumental (ko'krak qafasi a'zolari rentgenografiyasi, spirografiya) tekshiruvlar o'tkazildi. Patologik jarayonning davomiyligiga, oldingi va yondosh kelgan kasalliklarga, allergik reaksiyalar tendentsiyasiga alohida e'tibor qaratildi. Klinik tekshiruv anamnestic ma'lumotlarni to'plashni o'z ichiga oladi, shu jumladan onaning akusherlik tarixi, ayrim kasalliklarga nasliy moyilligi, bolaning hayoti tarixi, o'tkazgan kasalliklari, allergologik anamnez, bolaning premorbid fon kasalliklari mavjudligi va bemorning umumiy holatni baholandi.

Barcha bemorlar, ko'rsatmalarga ko'ra, tor mutaxassislar - ftiziatr, LOR, nevrolog, allergolog, kardiolog, psixolog va endokrinolog ko'ruvidan o'tkazildi.

60 nafar bemorlarda davolashdan oldin, davolashdan so'ng hamda katamnestic kuzatuv (3, 6, 12 oydan keyin) jarayonida tekshiruv o'tkazildi.

§2.2. Tadqiqot usullari

Bolalarni kompleks tekshirishda klinik-laborator, umumklinik, immunologik, mikrobiologik, funksional, rentgenologik va statistik tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

1. Umumiy klinik tekshiruv.

Klinik tekshiruv shikoyatlarni batafsil o'rganish, batafsil anamnez (homiladorlikning kechishi, tug'ruqni kechishi, ovqatlanish tartibi, 1 yoshgacha bo'lgan premorbid fon mavjudligi, Ba'zi patologiyalarga genetik moyillik, hayot va kasalliklar tarixiga asoslangan anamnez, allergik anamnez, oila a'zolarida surunkali kasalliklarning mavjudligi, ota-onalarning chekish odati kabi omillar o'rganilgan. Shuningdek, kasalxonaga yotqizilganda bolalarning umumiy holati ham tahlil qilinib va klinik belgilari baholanib, har bir bemorning shaxsiy kartasiga kiritilgan.

2. Immunologik tekshiruvlar.

Tadqiqotlar periferik qon zardobidagi immunoglobulinlar A, G, M va E ni o'rganishda FAN Rossiya Federatsiyasi Immunologiya ilmiy-tadqiqot instituti (Moskva) tomonidan ishlab chiqarilgan antilimfositar antitelalar reaktivlaridan foydalanildi. Sitokinlarning konsentratsiyasi: Interleykinlar - 4 (IL-4); -8 (IL-8); TNF- α ; IFN- γ "Sitokin" OOO IFA usulida (Sankt-Peterburg yuqori sof biologik preparatlar ilmiy-tadqiqot instituti) reaktivlari to'plami yordamida O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Odam immunologiyasi va genomikasi institutida immunologik tadqiqotlar olib borildi (direktor – m.f.d., akademik – T.U.Aripova).

3. Og'iz-halqum va ichak mikrobiota tekshiruvi

Og'iz-halqum surtmalarining mikrobiologik tekshiruvlari probiotiklar tayinlanishidan oldin, zamonaviy klinik mikrobiologiya standartlariga muvofiq o'tkazildi. Surtmalar Gramm usulida bo'yaldi, bakterioskopiya va patogen florani aniqlash uchun bakterial ekish amalga oshirildi. Bunda og'iz-halqumdan olingan namuna ozuqa muhitiga joylashtirildi va mikroorganizmlar koloniyalari "o'stirildi". Ozuqa muhiti sifatida bulyon va agar ishlatildi. Agar patogen $1,0 \cdot 10^6$ KShB/ml (KOE/ml koloniya shakllantirovchi birlik) va undan yuqori titrda ajratilgan bo'lsa, etiologik tashxis tasdiqlangan deb hisoblandi. Stafilokokkli etiologiya S.aureus ajratilganida, pnevmonokokkli - S.pneumoniae ajratilganida qayd etilgan. S.epidermidis va boshqa koagulaza-manfiy stafilokokklar o'pkadan tashqari yallig'lanish patologiyasi uchun etiologik jihatdan ahamiyatga ega deb hisoblanmagan. Ajratilgan mikroorganizmlarning antibiotiklarga sezgirligi baholangan.

Barcha BA bemorlarida patogen qo'zg'atuvchilari aniqlangan. Bemorning shifoxonada bo'lgan dastlabki 2 kunida tomoqdan surtma bakteriologik ekish uchun laboratoriyaga yuborildi. Tekshiruv O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Tibbiyot bosh boshqarmasining Sanitariya-epidemiologiya nazorati boshqarmasi bakteriologik laboratoriyasida (laboratoriya mudiri Eshnazarov S.E.) o'tkazildi.

- **Ichak mikrobiotasini** mikrobiologik tadqiqotlar zamonaviy klinik mikrobiologiya standartlariga muvofiq amalga oshirildi. Ichakning mikrobiologik holati suyuq agarli oziqa muhitlariga surtma ekish, so'ngra shtammlarni ajratib olish va mikroorganizmlarning turini, tipini morfologik, muhiti, fermentativ va antigenga xos xususiyatlarini o'rganish asosida bakteriologik usulda o'rganildi. Ichak disbiozining o'lchovini mikroblar majmuasining biologik xilma-xilligi sifatida hisoblandi, bu biologiyada miqdoriy jihatdan Shannon indeksi bilan belgilanadi va quyidagi formulaga ko'ra hisoblanadi:

$$H = - \sum_{i=1}^n p_i \log_2 p_i, \text{ qayerda } p_i = x_i / \sum_{i=1}^n x_i$$

Bu ichakdagi mikroorganizmlar soniga to'g'ri keladi. Me'yorlashtirilgan Shannon indeksi 0 dan 1 gacha bo'lgan qiymatlar oralig'ida bo'lib, bu mikrobiotsenoz holatini tahlil qilish uchun qulay hisoblanadi. Tadqiqot O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Tibbiyot bosh boshqarmasining Sanitariya-epidemiologiya nazorati boshqarmasi bakteriologik laboratoriyasida bakteriologik laboratoriyasida (laboratoriya mudiri Eshnazarov S.E.) o'tkazildi.

4. Instrumental (nafas olish faoliyatini o'rganish)

Kompyuter spirometriyasi 130 nafar bemorlarda bronxial reaktivligini hisobga olingan holda o'tkazildi. Tekshiruv Andijon viloyati bolalar ko'p tarmoqli tibbiy markazi pulmonologiya bo'limida Schiller Spirovit SP-1 (Spiro PC dasturi 1.5.0.0.) kompyuter spirometrida o'tkazildi. Natijalar ATS/ERS 2005 sifat mezonlari bo'yicha harorat va nisbiy namlikning (BTPS) pasayishi hisobga olingan holda avtomatik ravishda o'zgartirildi. Tadqiqotda, me'yorli tezlashgan nafas chiqarish manevrini o'tkazishda spirogrammaning quyidagi ko'rsatkichlaridan foydalanildi:

- O'TS – o'pkaning tiriklik sig'imi, me'yor 80 % dan yuqori;
- O'JTS – o'pkaning jadallashgan tiriklik sig'imi, me'yor 80 % dan yuqori;
- JNH1 – jadal nafas chiqarishning 1 sekunddagi hajmi, me'yor 80% dan yuqori;

- NCHAT – nafas chiqarish avjiy tezligi, me'yor 70% dan yuqori;
- HST25, HST50, HST75 – havoning 25%, 50%, 75% soniyali tezligi

Bronxial obstruksiyaning mavjudligi JNH1/ O'JTS va JNH1 ning pasayishidagi federal tavsiyalar va 200 mg salbutamol ingalyatsiyasidan so'ng JNH1ning 12% dan ko'proqqa ortishi, NCHAT ning 15% farqi haftalik kuratsiyaning boshlanishi va tugashi oralig'ida bo'lgan testga muvofiq tasdiqlandi (2.2.1-jadval).

2.2.1-jadval.

Nafas chiqarish avjiy tezligi bo'yicha bronxial obstruksiyaning og'irligini baholash

Bronxlar obstruksiya darajasi	O'pkaning jadallashgan tiriklik sig'imi
Yengil kechishi	70 % ortiq
O'rtacha daraja	60 dan 69% gacha
O'rta og'ir darajasi	50 dan 59% gacha
Og'ir daraja	35 dan 49% gacha
Juda o'g'ir daraja	35% dan kam

Quyidagi ko'rsatkichlar nafas tezligini cheklashni ko'rsatadi, JNH1 0,6 dan kam - bu kasallikni qo'zishi uchun aniq xavf omili.

- Ko'krak qafasi rentgenogrammasi
- EKG

5. Statistik tadqiqot usullari. Klinik laboratoriya, funksional, biokimyoviy, immunologik va mikrobiologik tadqiqotlardan olingan barcha ma'lumotlar Pentium-IV kompyuterida Microsoft Office Excel-2016 dasturiy paketi yordamida statistik qayta ishlandi.

O'rtacha arifmetik, o'rganilayotgan ko'rsatkich (M), standart og'ish (σ), o'rtacha standart xato (m), nisbiy qiymatlar (chastota, %) hisoblashda variatsion parametrik statistika va variatsion parametrik bo'lmagan statistika usullari

qo‘llanildi, statistik ahamiyatlilik shundaki Student testi - Jonson (t) yordamida normal taqsimot va umumiy dispersiyalarning tengligi (Fisher mezon) ostida xatolik ehtimolini (P) hisoblash bilan aniqlandi.

Statistik muhim o‘zgarishlar uchun asos sifatida to‘rtta asosiy ahamiyat darajasi qabul qilindi: yuqori - $P < 0,001$, o‘rta - $P < 0,01$, past (chegaraviy) - $P < 0,05$, ahamiyatsiz (ishonchsiz) - $P > 0,05$. Korrelyatsiya tahlili Spearman (R_s) va Pearson (r) usullari yordamida amalga oshirildi. Kasallikning rivojlanishiga ma'lum xavf omillarining ta'siri darajasini aniqlash uchun quyidagi parametrlar o‘rganildi:

Nisbiy xavf:

$$RR = \frac{a/(a+b)}{c/(c+d)}$$

Atributiv xavf:

$$AR = \left(\frac{a}{a+b} - \frac{c}{c+d} \right)$$

Etiologik ulush:

$$EF = \frac{RR - 1}{RR} \times 100\%$$

Imkoniyatlar nisbati:

$$OR = \frac{(a \times d)}{(b \times c)}$$

Agar imkoniyatlar munosabatining ko‘rsatkichlari 1 ga teng bo‘lsa ($OR=1$), unda o‘rganilayotgan omil statistik ahamiyatga ega emas. Agar imkoniyatlar munosabatining ko‘rsatkichlari 1 dan kichik bo‘lsa ($OR < 1$), o‘rganilayotgan omil himoya xususiyatlarining ehtimolligi haqida taxmin qilinadi. Imkoniyatlar munosabatining ko‘rsatkichlari 1 dan katta bo‘lsa ($OR > 1$), bu taxmin qilinayotgan omilning kasallikning kechishiga yuqori ta’siridan dalolat beradi.

§2.3. Ishlab chiqilgan kompleks davolash sxemalarining tavsifi

BA bilan kasallangan barcha bolalarga kuzatuvning dastlabki 6 oyida gipoallergen parhez buyurildi. Keyingi 3-yilda ovqatlanishda allergenga boy mahsulotlarni iste’mol qilmaslik tavsiya etildi.

Differensial terapiya rejimini tanlashda bemorlarning mikrobiologik, immunologik va funksional ma'lumotlari hisobga olingan.

Birinchi guruh (nazorat guruhi) faqat bazis terapiya (BT) - Birinchi guruh (nazorat guruhi) ni faqat bazis terapiya (BT) qabul qilgan BA YPK bilan 15 nafar, BA O'OPK bilan 11 nafar va BA OPK bilan 12 nafar bemor tashkil etdi. Gipoallergen parhez, tartib, bronxolitik terapiya (qisqa va uzoq ta'sir etuvchi β 2-agonistlar, qisqa va uzoq ta'sir etuvchi ingalyatsion glyukokortikosteroidlar, antileykotriyenlar), antigistamin preparatlar, spazmolitiklar, mukolitik va balg'am ko'chiruvchi dori vositalari, tizimli enzimoterapiya, antioksidantlar (aevit, baliq yog'i), simptomatik davolash va fizioterapiya muolajalari ya'ni bazis terapiya olayotgan bemorlar olindi.

Ikkinchi guruhga- ichak va og'iz-halqum mikrobiotasida kichik og'ishlarga ega bo'lgan 18 bemor BA YPK, 16 bemor BA O'OPK, 11 bemor BA OPK olingan. Bazis terapiya (BT) fonida ular probiotik Bioterol preparatini (liyofillangan *Saccharomyces boulardii*) kuniga 2 maxal 10 kun davomida 1 kapsuladan tavsiya etilgan.

Uchinchi guruhga- ichak va og'iz-halqum mikrobiotasida sezilarli o'zgarishlar kuzatilgan 14 nafar BA YPK, 18 nafar BA O'OPK va 15 nafar BA OPK bemorlari olingan. Ular bazis davoga qo'shimcha ravishda probiotik preparat Bioterol (lioofilizatsiyalangan *Saccharomyces boulardii*) kuniga 1 kapsuladan 2 maxal 10 kun davomida hamda mahalliy oral probiotik Baktoblis (*Streptococcus salivarius* K12 probiotik mikroorganizmlarini o'z ichiga olgan) tavsiya etildi. Baktoblisni kuniga 1 marta 1 tabletkadan, tabletkaga to'liq erib ketguncha og'iz bo'shlig'ida so'rish tavsiya etildi. O'tkir kasalliklarni davolash va qaytalanishning oldini olish kursining o'rtacha davomiyligi 3 oy, xar oyda 10 kunni tashkil etdi.

«Baktoblis" *S. Salivarius* K12 va qo'shimcha ravishda D vitamini o'z ichiga olgan probiotikdir. Og'iz-halqum mikroflorasi bilan bog'liq probiotik salivarsin ishlab chiqaradi - ular LOR a'zolari (*S.pyogenes*, *S.pneumoniae*, *S.aureus* va boshqalar) va og'iz bo'shlig'i infeksiyasini keltirib chiqaradigan bakteriyalarni

kamaytiradi, interferon gamma ishlab chiqarishni rag'batlantirib - mahalliy virusga qarshi immunitetni oshiradi. Ular bakteriyalar va kandidoz zamburug'larining shilliq qavatlarga yopishishini oldini oladi - kandidozning rivojlanish xavfini va patogenlarning organizmga kirib borishini kamaytiradi. Bu preparat quloq va tomoqning bakterial va virusli infeksiyalarini oldini oladi, immun tizimiga aralashmasdan kasallik xavfini kamaytiradi. D vitaminining yuqori miqdori organizmning infeksiyaga chidamliligini oshiradi.

"Bioterol" preparati (*Saccharomyces boulardii*, 250 mg) patogen va shartli patogen mikroorganizmlar shunungdek, zamburug'larga *Clostridium difficile*, *Candida albicans*, *Candida krusei*, *Candida pseudotropicalis*, *Klebsiella pneumoniae*, *Pseudomonas aeruginosa*, *Salmonella typhimurium*, *Yersinia enterocolitica*, *Escherichia coli*, *Shigella dysenteriae*, *Staphylococcus aureus* va boshqalarga hamda *Entamoeba histolitica*, *Lambliæ*, *Enterovirus* va *Rotavirus*larga nisbatan to'g'ridan to'g'ri antagonistik ta'sir ko'rsatadi. *Saccharomyces boulardii* bakterial sito- va enterotoksinlarga nisbatan antitoksik ta'sirga ega, ichakning fermentativ funksiyasini oshiradi. 5 yoshdan 15 yoshgacha - 1 kapsuladan kuniga 1-2 marta, 10-15 kun davomida (1 oygacha bo'lgan ko'rsatmalar bo'yicha) tavsiya etildi. Antibiotiklarni qo'llashda Bioterolni antibiotikni qabul qilishning birinchi kunidan boshlab va antibiotik terapiyasini qo'llash davomida tavsiya etiladi.

III-BOB. BRONXIAL ASTMA BILAN KASALLANGAN BEMORLARNING KLINIK VA LABORATOR TEKSHIRUV NATIJALARI

§ 3.1. Bronxial astmaning turli og‘irlik darajasidagi bolalarning klinik va anamnestik tavsifi

Tadqiqotda 5 yoshdan 15 yoshgacha bo‘lgan 130 nafar BA ning uch xil og‘irlik darajasidagi bemorlar olindi. Ulardan 36,2% (47) bemorlarda yengil persistik kechishi, 34,6% (45) bolalarda o‘rtacha og‘irlikdagi, 29,2% (38) bolalarda og‘ir persistik BA tashxisi qo‘yilgan. Nazorat guruhi xuddi shu yoshdagi 30 nafar sog‘lom bolalardan iborat.

BA kasalligida o‘z vaqtida statsionar davolash kasallikning kechishi va asoratlari muhim ta’sir ko‘rsatadi. Ta’kidlash joizki, BA bilan kasallangan bemorlar nafas qisish xuruji va kasallikga xos klinik belgilar boshlangandan so‘ng turli xil vaqt oralig‘ida shifokorga tekshiruv va davolanishga murojat qiladi. Ushbu ko‘rsatkichlarni tahlil qilib, asosan kasallikning 3-5 kunida 67 nafar (51,5%) bemorlar uyda samarasiz davolanishdan keyin shifoxonaga yotqizilganligi aniqlandi. Ma’lumki, bolaning sog‘ligi va rivojlanishini belgilaydigan akusherlik anamnezi, chaqaloqning tug‘ilgandagi va BA kasalligiga chalingunga qadar bemorning holatini baholash muhim hisoblanadi. Ba bilan kasallangan bemorlarning anamnezi bo‘yicha to‘liq ma’lumotlarni tahlil qilish natijasida, ularda eng ko‘p uchraydigan xavf omillarini aniqlandi. Jadvaldagi ma’lumotlarga ko‘ra, BA bilan kasallangan turli darajadagi bemorlarning 69,2% (90) da homiladorlikning patologik kechishi (OR 9,0; RR 1,5; χ^2 24,6; $p < 0,001$), homiladorlikning I-II yarmida ko‘ngil aynishi va qusish 86,9% (113) da (OR 11,5;

RR 1,94; χ^2 35,3; $p < 0,001$), I-II darajali kamqonlik 83,8% (108) da (OR 16,1; RR 1,925; χ^2 43,04; $p < 0,001$), homila tushish xavfi 40,8% (53) holatlarda qayd etildi. (OR 6,2; RR 1,28; χ^2 10,14; $p > 0,002$). Nazorat guruhida yuqoridagi ko'rsatkichlar 20,0% (6), 36,6% (11), 23,3% (7), 10,0% (3) ko'rsatkichlarni mos ravishda tashkil etdi (3.1.1-jadval).

Tekshirilgan bolalarda BA rivojlanishining xavf omillari tahlili

Xavf omillari	Sogʻlom n=30		BA n=130		p	OR	RR	χ^2	95% CI
	abs	%	abs	%					
Homiladorlikning patologik kechishi	6	20,0	90	69,2	<0,001	9,0	1,5	24,6	3,4-23,7
Homiladorlik I-II yarimidagi koʻngil aynishi va qusish	11	36,6	113	86,9	<0,001	11,5	1,93	35,3	4,66-28,3
Kamqonlik I-II darajasi	7	23,3	108	83,8	<0,001	16,1	1,92	43,04	6,2-42,2
Xomila tushishi xavfi	3	10,0	53	40,8	0,002	6,2	1,28	10,14	1,8-21,5
Homiladorlikda qogʻonoq suvini koʻp boʻlishi	4	13,3	27	20,8	0,35	1,7	1,09	0,86	0,5-5,3
Homiladorlik davridagi kasalliklari: OʻRI	10	33,3	105	80,7	<0,001	8,4	1,64	27,1	3,5-20,6
Homiladorlik davrida homila ichi gipoksiyasini boʻlishi	3	10,0	41	31,5	0,02	4,15	1,22	5,7	1,2-14,5
Onadagi surunkali kasalliklar: LOR aʼzolari (surunkali tonzillit, allergik rinit, sinusit)	8	26,7	91	70,0	<0,001	6,4	1,44	19,4	2,6-15,6
Tugʻruqni patologik kechishi	4	13,3	53	40,8	0,005	4,47	1,24	8,0	1,48-13,6

Chala tugʻilganlar	4	13,3	29	22,3	0,27	1,9	1,11	1,19	0,6-5,8
Asfiksiya bilan	2	6,7	40	30,8	0,007	6,22	1,25	7,3	1,4-27,4
Tugʻilganda chaqaloq vaznini baholash:									
-2CO dan +2CO gacha (standart ogʻish)	19	63,3	21	16,2	<0,001	0,11	0,58	28,9	0,05-0,27
+2CO dan ortiq	4	13,3	69	53,1	<0,001	7,35	1,35	15,5	2,42-22,3
-2CO dan kam	7	23,3	40	30,7	0,42	1,46	1,07	0,65	0,58-3,68
BA bilan kasallangan bemorlarda komorbid (qoʻshimcha kasalliklarni) borligi:									
allergik rinit	4	13,3	34	26,2	0,14	2,3	1,14	2,2	0,7-7,1
atopik dermatit	2	6,7	48	36,9	0,002	8,2	1,29	10,4	1,9-35,9
Passiv chekish	5	16,7	82	63,1	<0,001	8,5	1,43	21,2	3,1-23,8
1 yoshgacha bolalarni ovqatlanish tartibi:	16	53,3	27	20,8	<0,001	0,23	0,71	13,2	0,1-0,5
- tabiiy ovqatlanish (ona suti)									
- sunʼiy	6	20,0	70	53,8	<0,001	4,67	1,29	11,2	1,8-12,2
- aralash	8	26,7	33	25,4	0,89	0,94	0,99	0,02	0,4-2,3

Izoh: P - amalda sogʻlom bolalar guruhi va BA maʼlumotlariga nisbatan farqlarning ishonchliligi; RR- nisbiy xavf; OR – imkoniyat nisbati; χ^2 - χ_i kvadrat kriteriy; 95% CI –yuqori va pastki chegara 95% ishonch oraligʻi (IO)

Ekstragenital patologiyani tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, 105 nafar (80,7%) bemorda onasining homiladorlik davrida O'RI kasalliklari qayd etilgan (OR 8,4; RR 1,6; χ^2 27,1; $p < 0,001$), 91 nafar (70,0%) onalarda surunkali LOR kasalliklari aniqlangan (OR 6,4; RR 1,44; χ^2 19,4; $p < 0,001$), nazorat guruhidagi bolalarda yuqoridagi ko'rsatkichlar mos ravishda 10 nafar (33,3%) va 8 nafar (26,7%) ni tashkil etgan. Tug'ruqning patologik kechishi 53 nafar (40,8%) bemorda qayd etilgan (OR 4,47; RR 1,24; χ^2 8,0; $p < 0,005$). Muddatidan oldin tug'ilganligi 29 nafar (22,3%) bemorda (OR 1,9; RR 1,1; χ^2 1,2; $p < 0,3$); 40 nafar (30,8%) bemorda asfiksiya bilan tug'ilgan (OR 6,22; RR 1,25; χ^2 7,3; $p < 0,007$); onasining homiladorlik davrida 41 nafar (31,5%) ida homila ichi surunkali gipoksiyasi (OR 4,15; RR 1,22; χ^2 5,7; $p < 0,02$) kuzatilgan. Taqqoslash guruhidagi bolalarda yuqoridagi ko'rsatkichlar mos ravishda (4) 13,3%; (4) 13,3%, (2) 6,7% va (3) 10,0% ni tashkil etgan. Ushbu ma'lumotlar bolalarda BA rivojlanishiga ta'sir qiluvchi xavf omillari sifatida bolalarda perinatal va intranatal patologik belgilarning sezilarli chastotasini yaqqolligini ko'rsatadi.

Chaqaloqning tug'ilgandagi vaznini baholash shuni ko'rsatdiki, BA bilan kasallangan bolalarda +2CO dan yuqori og'ishlar 53,1% (69) bemorda (OR 7,35; RR 1,35; χ^2 15,5; $p < 0,001$), -2CO dan kam vazn bilan tug'ilganligi 30,7% (40) bemorda aniqlandi (OR 1,46; RR 1,07; χ^2 0,65; $p < 0,42$). Bolalarda allergik rinit ko'rinishidagi komorbid patologiya mavjudligi 26,2% (34) bemorda (OR 2,3; RR 1,14; χ^2 2,2; $p < 0,14$) va atopik dermatit 37% bemorda (48) uchradi (OR 8,2; RR 1,29; χ^2 10,4; $p < 0,002$) va bu ko'rsatkichlar kasallik kechishiga va bemorning og'irligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini isbotladi. BA bilan kasallangan bolalarning 63,1% (82) da passiv chekishdan aziyat chekkan (OR 8,5; RR 1,43; χ^2 21,2; $p < 0,001$), taqqoslash guruhidagi bolalarda u 16,7% ni tashkil etgan. Bronxial astma bilan kasallangan bemorlarni sun'iy ovqatlantirilganligi 70% ida (53,8) (OR 4,67; RR 1,29; χ^2 11,2; $p < 0,001$) aniqlandi, nazorat guruhida 20% (6) ni tashkil etdi. Omilli tahlil shuni ko'rsatdiki, homiladorlik kechishidagi asoratlardan, homiladorlik davrida boshdan kechirilgan kasalliklar va bolani sun'iy oziqlantirish

mavjud bo'lgan hollarda bronxial astma kasalligi rivojlanish xavfi yuqori darajada bo'lishi mumkin.

BA shakllanishida nasliy moyillikka katta ahamiyat beriladi. BA bilan kasallangan bolalarda allergik kasalliklar bo'yicha nasliy moyillik nazorat guruhiga qaraganda 3 barobar ko'proq qayd etildi. Allergik kasalliklar onalarning 47,7% (62) ida (OR 3,65; RR 1,23; χ^2 7,65; $p < 0,006$) va otalarning 23,8% (31) ida (OR 2,82; RR 1,16; χ^2 2,8; $p < 0,09$) kuzatilgan. Bolalarning 23,1% ida allergik kasalliklarga nisbatan ikki tomonlama nasliy moyillik qayd etilgan (OR 8,7; RR 1,25; χ^2 6,1; $p < 0,01$). Onadan o'tgan BA bo'yicha nasliy moyillik 44,6% ni (58) (OR 11,3; RR 1,34; χ^2 14,98; $p < 0,001$), otadan o'tgani esa 40,0% ni (52) (OR 19,3; RR 1,35; χ^2 14,8; $p < 0,001$) tashkil etdi. Nazorat guruhida esa bu ko'rsatkichlar mos ravishda 6,7% va 3,3% ni tashkil etdi (3.1.2-jadvalda).

3.1.2-jadval.

Tekshirilgan bolalarda allergik kasalliklar bo'yicha nasliy moyillikning roli

Koʻrsatkichlar	Sogʻlom guruh		BA		P	OR	RR	χ^2	95% CI
	n=30		n= 130						
	abs	%	abs	%					
Onadagi nasliy allergiyaga moyilligi	6	20,0	62	47,7	0,006	3,65	1,23	7,65	1,4-9,5
Otada nasliy allergiyaga moyilligi	3	10,0	31	23,8	0,09	2,82	1,16	2,8	0,8-9,93
Ota-onada ham nasliy allergiyaga moyilligi	1	3,33	30	23,07	0,014	8,7	1,25	6,1	1,14-66,5
Ona tomonidan qarindoshlaridagi nasliy allergiyaga	2	6,67	58	44,6	<0,001	11,3	1,34	14,98	2,6-49,2
Ona tomonidan qarindoshlaridagi nasliy allergiyaga	1	3,33	52	40,0	<0,001	19,3	1,35	14,8	2,6-146,3

Izoh: P - sog'lom bolalar guruhi va BA ma'lumotlariga nisbatan farqlarning ishonchliligi; RR-nisbiy xavf; OR – imkoniyat nisbati; χ^2 - Xi-kvadrat kriteriyi; 95% CI –yuqori va pastki chegara 95% ishonch intervali (II)

Nasliy moyillikning omilli tahlili shuni ko'rsatdiki, BA paydo bo'lishining eng yuqori xavfi ota-onalarda allergik kasalliklar mavjud bo'lganda yuzaga keladi. O'rganilgan bemorlarda kasallikning og'irligi sezilarli darajada noqulay premorbid fon va yondosh patologiyaga bog'liq. Bronxial astma bilan kasallangan bolalarda quyidagi holatlar aniqlandi: I-II darajali kamqonlik 95 nafar (73,1%) bolada kuzatildi (OR 4,69; RR 1,38; χ^2 14,5; $P < 0,001$), raxitning qoldiq belgilari 79 nafar (60,8%) bolada aniqlandi (OR 4,26; RR 1,3; χ^2 1,14; $P < 0,001$), ortiqcha vazn esa 64 nafar (49,2%) bolada qayd etildi (OR 4,85; RR 1,28; χ^2 10,5; $P < 0,002$). LOR a'zolarining yondosh kasalliklari BA bilan kasallangan 96 nafar (73,8%) bolada qayd etilgan (OR 4,88; RR 1,4; χ^2 15,2; $P < 0,001$), taqqoslash guruhidagi bolalarda bu ko'rsatkich 36,7% ni tashkil etdi. Timomegaliya 100 nafar (76,9%) bolalarda uchradi (OR 30,0; RR 1,85; χ^2 47,6; $P < 0,001$), taqqoslash guruhidagi bolalarda bu ko'rsatkich 3 nafar (10,0%) bemorni tashkil etdi. Shunday qilib, turli darajadagi fon holatlari va yondosh kasalliklari mavjud bo'lgan bolalar BA rivojlanishi bo'yicha xavf guruhiga kirishini taqdim etilgan ma'lumotlar yana bir bor tasdiqladi (3.1.3-jadval).

Tekshirilgan bolalarda fon holati va birga keladigan patologiyani omilli tahlili

Fon kasalliklari	Sogʻlom guruh n=30		BA n= 130		P	OR	RR	χ^2	95% CI
	abs	%	abs	%					
Kamqonlik I-II	11	36,7	95	73,1	<0,001	4,69	1,38	14,5	2,03-10,8
Raxitning qoldiq belgilari	8	26,7	79	60,8	<0,001	4,26	1,3	11,4	1,8-10,3
Ortiqcha vazn	5	16,7	64	49,2	0,002	4,85	1,28	10,5	1,75-13,44
Oqsil energetik yetishmovchilik	2	6,7	14	10,8	0,5	1,7	1,1	0,46	0,4-7,87
Timomegaliya	3	10,0	100	76,9	<0,001	30,0	1,85	47,6	8,5-105,8
LOR aʼzolari kasalliklari	11	36,7	96	73,8	<0,001	4,88	1,4	15,2	2,1-11,3

Izoh: P – amalda sogʻlom bolalar guruhi va BA maʼlumotlariga nisbatan farqlarning ishonchliligi;; RR- nisbiy xavf; OR – mkoniyat nisbati;; χ^2 - Xu- kvadrat kriteriyi;; 95% CI – yuqori va pastki chegara 95% ishonchliligi intervali (II)

Tadqiqot guruhlarida BAning turli og'irlik darajasidagi bolalarda uchraydigan asosiy klinik alomatlar chastotasining omilli tahlilida eng yaqqol o'zgarishlar BA og'ir persistik shakli (BA OPK) bo'lgan bolalarda kuzatilgan. Barcha bemorlarda 130 nafar (100%) bemorlarda quruq yoki ho'l yo'tal bo'lib, asosan shilliq balg'am ajralishiga, ayniqsa kasallikni qo'zg'alish davrida shikoyat qilgan.

BA bilan kasallangan bolalarda umumiy xolsizlik yengil persistik kechishida (BA YPK) 26 nafar (55,3%), bronxial astma o'rta og'ir kechishida (BA O'OPK) 36 nafar (80,0%), bronxial astma og'ir persistik kechishida BA OPK 34 nafar (89,5%) bemorda (OR 6,87; RR 3,54; $\chi^2_{211,8}$; $P<0,001$) qayd etildi.

Xansirash BA OPK da 38 nafar (100,0%) bemorda kuzatildi. BA YPK da esa xansirash 25 nafar (53,2%) bemorni tashkil etdi (OR 32,6; RR 13,7; $\chi^2_{20,8}$; $P<0,001$). Ishtahaning pasayishi BA OPK bilan kasallangan bolalarning 34 (89,5%) nafarida va BA YPK bo'lgan bemorlarning 28 (59,6%) nafarida kuzatildi (OR 12,2; RR 5,9; $\chi^2_{13,9}$; $P<0,001$). BA OPK da uyqu buzilishi 38 (100%) nafar bemorda, BA YPK bo'lgan bemorlarning esa 32 nafarida (68,1%) kuzatildi (OR 17,3; RR 8,6; $\chi^2_{11,8}$; $P<0,001$).

Nafas olish a'zolarining rentgenologik tekshiruvlari ma'lumotlariga ko'ra, kasallikning birinchi kunlarida qabul qilingan bemorlarning aksariyatida qovurg'alarining gorizontall joylashuvi bilan o'pkaning ikkala tomondan emfizematoz kengayishi 60% da, yaqqol tomir rasmi 49,2% da, barcha bemorlarning 100% da o'pka ildizlarida ularning rentgenomorfologik tuzilishining buzilishi bilan infiltrativ o'zgarishlar aniqlangan (3.1.4-jadval).

Tadqiqot guruhlarida kuzatilgan asosiy klinik belgilarning chastotasi bo'yicha omilli tahlil, %

Klinik simptomlari	BA YPK (n=47)		BA O'OPK (n=45)		BA OPK (n=38)		P	OR	RR	χ^2	95% CI
	abs	%	abs	%	abs	%					
Umumiy xolsizlik	26	55,3	36	80,0	34	89,5	<0,001	6,87	3,54	11,81	2,1-22,4
Ishtaxaning kamayishi	28	59,6	34	75,6	36	94,7	<0,001	12,2	5,9	13,9	2,6-56,9
Uyquning buzilishi	32	68,1	35	77,8	38	100,0	<0,001	17,3	8,58	11,8	2,2-138,7
Rangparlik	39	82,9	39	86,7	38	100,0	0,03	7,6	4,38	4,6	0,91-63,7
Burundan ajralmalar kelishi	7	14,9	12	26,7	11	28,9	0,12	2,33	1,52	2,49	0,8-6,76
Teridagi toshmalar	10	21,3	16	35,6	16	42,1	0,04	2,69	1,65	4,29	1,04-6,96
Sianoz, og'iz-burun atrofida	14	29,8	20	44,4	22	57,9	0,01	3,24	1,87	6,79	1,32-7,95
Tana haroratini ko'tarilishi	15	31,9	18	40,0	18	47,4	0,15	1,92	1,42	2,11	0,79-4,65
- subfebril	9	19,1	10	22,2	12	31,6	0,19	1,95	1,41	1,74	0,72-5,29
- febril	6	12,8	8	17,8	6	15,8	0,69	1,28	1,14	0,16	0,38-4,35
Xansirash	25	53,2	39	86,7	38	100,0	<0,001	32,6	13,7	20,8	4,1-257,3

Peroral xriplar	11	23,4	23	51,1	23	60,5	<0,001	5,02	2,3	12,1	1,96-12,8
Yoʻtal: -quruq	30	63,8	34	75,5	32	84,2	0,04	3,02	1,98	4,42	1,05-8,69
- nam	17	36,2	11	24,4	6	15,8	0,04	0,33	0,51	4,42	0,12-0,95
Tungi nafas qisish xuruji(haftada 2 marta)	25	53,2	34	75,6	35	92,1	<0,001	10,3	4,86	15,3	2,77-38,1
Auskultatsiyada:											
-dagʻal nafas	47	100,0	45	100,0	38	100,0	0,9	0,8	0,89	0,02	0,05-13,3
Quruq, xushtaksimon xirillashlar	30	63,8	34	75,5	32	84,2	0,04	3,02	1,98	4,42	1,05-8,69
Nam xirillashlar	17	36,2	11	24,4	6	15,8	0,04	0,33	0,51	4,42	0,12-0,95

Izoh: P – engil va oʻrtacha darajadagi persistik astma ma'lumotlari bo'yicha farqlarning ishonchliligi; RR- nisbiy xavf; OR – mkoniyat nisbati;; χ^2 - Xi- kvadrat kriteriyi; 95% CI – yuqori va pastki chegara 95% ishonchliligi intervali (II)

§3.2. Bronxial astmaning turli og'irlik darajasidagi bolalarda gumoral va sitokin immunitetining o'ziga xosligi

Bronxial astma bilan kasallangan bemorlarda gumoral immunitetni o'rganish natijalari ko'ra, BA YPK bo'lgan bolalarda Ig A kontsentratsiyasi $93,3 \pm 2,22$ mg/% gacha va Ig G $788,2 \pm 10,6$ mg/% gacha kamaydi, Ig M miqdori esa $123,9 \pm 2,81$ mg/% gacha ko'tarildi ($p < 0,001$) (normada Ig A $107,9 \pm 3,6$ mg/%; Ig G $938,33 \pm 17,6$ mg/% va Ig M $90,7 \pm 2,8$ mg/%).

BA O'OPK bilan o'rganilayotgan sezilarli o'zgarishlar aniqlandi, xususan IgA darajasi $82,6 \pm 2,73$ mg /% gacha va Ig G $692,02 \pm 14,2$ mg/% gacha kamaydi va IgM miqdori $138,3 \pm 3,4$ mg/% gacha ko'tarildi ($p < 0,001$).

BA OPK bilan o'rganilayotgan ko'rsatkichlar eng yaqqol o'zgarishlar aniqlandi, xususan IgA darajasi $72,6 \pm 4,4$ mg/% gacha va IgG $611,6 \pm 6,1$ mg/% gacha kamaydi, shuningdek IgM miqdori esa $146,5 \pm 6,7$ mg/% ga ko'tarildi ($p < 0,001$).

IgE darajasini o'rganayotganda, bu immunoglobulinning sintezi BA bo'lgan bolalarning barcha uch guruhida oshganligi aniqlandi. BA YPK bilan kasallangan bemorlarda Ig-E tarkibi 4,1 marta ($213,85 \pm 6,01$ ME/ml), BA O'OPK bilan kasallangan bemorlarda 5 marta ($273,6 \pm 6,8$ ME/ml), BA OPK - me'yordan 6 marta ($301,3 \pm 13,2$ ME/ml) ko'payganligi qayd etildi ($p < 0,001$). O'tkazilgan tadqiqotlar natijalari yana bir bor BA bilan kasallangan bemorlarda Th 2 tipining Th 1 tipidan ustunlik qilishini ko'rsatadi, bu umumiy IgE ning yuqori darajasini isbotladi (3.2.1-jadval).

Bronxial astmaning turli og'irlik darajasidagi bolalarda gumoral immunitet holati ($M \pm m$)

Ko'rsatkichlar	Sog'lom nazorat guruh (n=30)	BA (n=130)	BA YPK (n=47)	BA O'OPK (n=45)	BA OPK (n=38)	P	P ₁	P ₂
IgG, mg/%	938,3±17,6	703,3±8,5	788,2±10,6	692,02±14,2	611,6±6,1	<0,001	<0,01	<0,001
IgA, mg/%	107,9±3,6	84,1±1,77	93,3±2,22	82,6±2,73	72,6±4,4	<0,001	<0,01	<0,001
IgM, mg/%	90,7±2,8	136,6±2,1	123,9±2,81	138,3±3,4	146,5±6,7	<0,001	<0,01	<0,001
IgE, ME/ml	52,6±0,9	262,4±4,45	213,85±6,01	273,6±6,8	301,3±13,2	<0,001	<0,05	<0,001

Izoh: P – Nazorat guruhi va BA o'rtasidagi ko'rsatkichlardagi farqlarning ishonchliligi;

P₁ - BA YPK va BA O'OPK o'rtasidagi ko'rsatkichlardagi farqlarning ishonchliligi;

P₂ - BA YPK u BA OPK o'rtasidagi ko'rsatkichlardagi farqlarning ishonchliligi.

Sitokin statusini o'rganish natijalari ko'ra, BA bilan kasallangan bolalarda IL-4 ishlab chiqarish sezilarli darajada $21,3 \pm 0,38$ ng/ml gacha ortgan ($p < 0,001$). BA O'OPK bilan kasallangan bemorlarda IL-4 ishlab chiqarish ko'rsatkichi sezilarli darajada $29,6 \pm 1,44$ ng/ml gacha ortgan, bu me'yordan 6,12 marta yuqori natijani ko'rsatdi ($p < 0,01$). BA OPK bilan kasallangan bemorlarda esa IL-4 ishlab chiqarish ko'rsatkichi $39,03 \pm 2,3$ ng/ml gacha ko'tarildi. Barcha tekshirilgan guruhlarda yallig'lanishga qarshi IL-4 sitokinining muntazam ravishda ortib borishi kuzatildi, ammo bu holat BA OPK da yanada yaqqolroq namoyon bo'lib, me'yordan 8,4 marta yuqori ko'rsatkichni qayd etdi.

IL-8 kuchli yallig'lanishni keltirib chiqaruvchi mediator bo'lib, xemokinlar guruhiga mansub. U bakteriyalarning endotoksinlari va sitokinlari ta'sirida, asosan o'sma nekrozi omili (TNF) hisobiga ishlab chiqariladi. U fagositoz hujayralarining xemotaksisi uchun muhit yaratadi. IL-8 o'pkadagi yallig'lanish jarayonining muhim vositachisidir. BA YPK bilan kasallangan bolalarda IL-8 miqdorini tahlil qilganda, u sezilarli darajada $91,2 \pm 2,9$ ng/ml gacha ko'tarilgani aniqlandi ($p < 0,01$). BA O'OPK bilan kasallangan bemorlarda IL-8 ishlab chiqarish ko'rsatkichi sezilarli darajada $105,5 \pm 4,17$ ng/ml gacha oshgani kuzatildi ($p < 0,01$). BA OPK bilan kasallangan bemorlarda esa IL-8 ishlab chiqarish ko'rsatkichi $110,0 \pm 6,7$ ng/ml gacha ko'tarilganligi qayd etildi ($p < 0,01$). Yallig'lanishga qarshi IL-8 sitokinining barcha tekshirilgan guruhlarda keskin o'sishi kuzatiladi, ammo BA OPK da ko'proq namoyon bo'lib, normadan 5,6 martaga ortganligi qayd etildi (3.2.2-jadval).

Tadqiqot guruhlaridagi bolalarda sitokinlarning tarkibi, (M±m) (ng/ml)

Ko'rsatkichlar	Sog'lom va nazorat guruhi (n=30)	BA (n=130)	BA YPK (n=47)	BA O'OPK (n=45)	BA OPK (n=38)	P	P1	P2
TNF- α	28,4±1,5	84,05±1,9	63,5±1,2	89,7±3,2	100,2±4,9	<0,001	<0,001	<0,001
IL – 4	4,6±0,6	29,6±0,9	21,3±0,38	29,6±1,44	39,03±2,3	<0,001	<0,05	<0,001
IFN- γ	34,3±2,7	16,3±0,6	22,2±0,74	15,3±0,95	9,85±0,6	<0,001	<0,01	<0,001
IL - 8	19,2±2,4	102,4±2,57	91,2±2,9	105,5±4,17	110,0±6,7	<0,001	<0,01	<0,01

Izoh: P – Nazorat guruhi va BA o'rtasidagi ko'rsatkichlardagi farqlarning ishonchliligi;

P₁ - BA YPK va BA O'OPK o'rtasidagi ko'rsatkichlardagi farqlarning ishonchliligi;

P₂ - BA YPK va BA OPK o'rtasidagi ko'rsatkichlardagi farqlarning ishonchliligi.

Organizmni virusli va bakterial infeksiyalardan himoya qilishning asosiy vositalaridan biri interferonlar tizimidir. Ko'pchilik patogen mikroorganizmlar interferon induksiya qiluvchi faollikka ega. Qo'zg'atuvchining hujayralardagi dastlabki ko'payish sikllaridan so'ng, interferon genlari oilasining ko'p sonli ekspressiyasi faollashadi. Bu jarayon qonda ham zardob interferoni, ham interferon ishlab chiqarishga faollashtirilgan leykotsitlarning paydo bo'lishi bilan birga kechadi. Tekshiruvdan o'tgan bemorlarda interferon- γ darajasini o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarimiz ularning tarkibida chuqur yetishmovchilikni ko'rsatdi. Shunday qilib, BA YPK bo'lgan bolalarda qon zardobidagi interferon- γ (IFN- γ) darajasi 1,6 barobar past va $22,2 \pm 0,74$ ng/ml ni tashkil etdi ($p < 0,05$), BA O'OPK bo'lgan bemorlarda ikki barobar past va $15,3 \pm 0,95$ ng/ml ni tashkil etdi va BA OPKda mos ravishda sog'lom bolalarga qaraganda uch barobar past ($9,85 \pm 0,6$ ng/ml) ekanligini ko'rsatdi, (p barcha holatlarda $< 0,01$ dan $< 0,001$ gacha). BA OPK bilan kasallangan bemorlarda sezilarli kamayish aniqlandi.

Gomeostazni saqlashda muhim rol o'ynaydigan IFN- γ ishlab chiqarishning buzilishi tekshirilgan bemorlarga xosdir. IFN- γ ishlab chiqarishning kamayishi kasallikning uzoq muddatli qaytalanishiga olib keladi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, TNF- α darajasi nazorat guruhidagi bolalarga nisbatan BA OPK bo'lgan bolalarda 3,8 marta sezilarli darajada ko'tarildi. ($p < 0,001$). BA YPK bo'lgan bolalarda TNF- α sezilarli darajada $69,54 \pm 2,45$ ng/ml ga yetdi ($p < 0,001$). BA O'OPK bilan kasallangan bemorlarda TNF- α ishlab chiqarish yaqqol darajada $89,7 \pm 3,2$ ng/ml ga ko'tarildi ($p < 0,001$). BA OPK bo'lgan bemorlarda TNF- α ko'rsatkichlari $100,2 \pm 4,9$ ng/ml ga ko'tarildi. Barcha o'rganilayotgan guruhlarda yallig'anishni rag'batlantiruvchi sitokin TNF- α ning tabiiy o'sishi mavjud, ko'rsatkichlar BA OPK da yaqqolroq bo'lib, me'yordan 5,6 marta ortib ketdi, bu yallig'lanish jarayonini ushlab turishda ishtirok etadigan makrofaglarning faolligini ko'rsatdi.

§3.3. Bronxial astmaning turli og'irlik darajasidagi bolalarda og'iz-halqum va ichak mikrobiotasining tavsifi va uning immunologik ko'rsatkichlar bilan o'zaro bog'liqligi

Bronxial astmaning turli og'irlik darajasidagi bolalarda og'iz-halqum mikrobiotasining tarkibini aniqlash uchun og'iz-halqum surtmalarining bakteriologik tekshiruvi o'tkazildi. Tadqiqot patogen va shartli patogen aerob va fakultativ anaerob mikroflorani yarim miqdoriy bakteriologik ekish, patogenlik omillarini va ularning kolonizatsiya faolligini o'rganish asosida etiologik ahamiyatga ega mikroorganizmlarni baholashni o'z ichiga oldi.

Bakteriologik tekshiruvda tomoqdan olingan surtmada bakteriyalar miqdorini son jihatdan baholash alohida ahamiyatga ega bo'ldi, chunki nafas yo'llaridan yuqori miqdorda (10^6 - 10^8) ekilgan mikroorganizmlar etiologik ahamiyatga ega hisoblandi. 10^3 va undan kam ko'rsatkichlar hamroh mikroflora uchun xos bo'lsa, $10^4 - 10^6$ ko'rsatkichlari esa mikroorganizmning etiologik rolini taxmin qilish imkonini berdi. Ko'p sonli pnevmotor bakteriyalar orasidan ajratib olingan va keyinchalik identifikatsiya qilingan eng ko'p uchraydiganlari: stafilokokklar, streptokokklar, pnevmokokklar, gemofil tayoqchasi, mikoplazma, xlamidiyalar, klebsiyella va moraksella tanlab olindi (3.2.1-jadval).

Tadqiqot va tahlil natijalarini baholash uchun bakteriyalarni tanlashning ishonchliligi ikkita ko'rsatkichlar bilan tasdiqlangan: barcha tekshirilgan 130 nafar bemorda bakteriologik ekishning takrorlanishi, shuningdek, tomoqdagi surtmada kamida $5 \cdot 10^5$ kontsentratsiya bo'lishi kerak bo'lgan.


BA bilan kasallangan turli darajadagi bolalarda og'iz-halqum mikrobiotasining tarkibining uchrash chastotasini o'rganish natijalari keltirilgan. BA bilan kasallangan bolalarda monoflora bolalarning 63,1% (82) ida, mos ravishda 36,9% (48) ida aralash flora aniqlangan. BA YPK bo'lgan bolalarda monoflorasi 78,8% (37) ida, aralash flora - 21,3% (10) ida aniqlangan. Bolalarda BA O'OPK monoflorasi 66,7% (30) ida, aralash flora 33,3% (15) ida, BA OPK monoflorasi bolalarda 39,5% (15) ida, aralash flora 60,5% (23) ida aniqlangan (3.3.1-jadval).

BA bilan kasallangan bolalarda aniqlangan mikroorganizmlarning nisbati, %

Mikroorganizmlar	Nazorat guruhi (n=30)		BA (n=130)		BA YPK (n=47)		BA O'OPK (n=45)		BA OPK (n=38)		P	P1
	abs	%	abs	%	abs	%	abs	%	abs	%		
Staphylococcus aureus	2	6,7	50	38,5	13	27,6	19	42,2	18	47,4	<0,001	<0,001
Staphylococcus epidermidis	3	10,0	23	17,7	6	12,8	8	17,8	9	23,7	<0,05	<0,001
Staphylococcus haemolyticus	1	3,3	16	12,3	5	10,6	7	15,6	4	10,5	<0,01	>0,05
Streptococcus haemolyticus	-	-	8	6,2	6	12,8	1	2,2	1	2,6	<0,01	<0,01
Streptococcus pneumoniae	1	3,3	12	9,2	5	10,6	3	6,7	4	10,5	<0,05	>0,05
Enterococcus faec.	1	3,3	38	29,2	11	23,4	13	28,9	14	36,8	<0,001	<0,001
Klebsiella pneumoniae	-	-	5	3,8	2	4,3	1	2,2	2	5,3	<0,05	>0,05
Candida albicans	3	10,0	19	14,6	7	14,9	4	8,9	8	21,1	<0,05	<0,01
Neisseria spp	4	13,3	11	8,5	2	4,3	5	11,1	4	10,5	<0,05	<0,01
Monoflora	10	33,3	82	63,1	37	78,7	30	66,7	15	39,5	<0,001	<0,001
Mikstaflora	5	16,7	48	36,9	10	21,3	15	33,3	23	60,5	<0,001	<0,001


Izoh: P - taqqoslash guruhi va BA bilan kasallangan bolalar guruhi ma'lumotlariga nisbatan farqning ishonchliligi.

Bolalarda og‘iz-halqumdan olingan surtma mikrobiotasini o‘rganishda, bronxial astma (BA) bilan kasallangan bolalarda *Staphylococcus aureus* 50 nafar (38,5%), *Enterococcus faec.* 38 nafar (29,2%), *Staphylococcus epidermidis* 23 nafar (17,7%) va *Candida albicans* 19 nafar (14,6%) bemorlarda ustunlik qilishi aniqlandi. Kamroq miqdorda *Staphylococcus haemolyticus* 16 nafar (12,3%), *Streptococcus haemolyticus* 8 nafar (6,2%), *Streptococcus pneumoniae* 12 nafar (9,2%) va *Neisseria spp* 11 nafar (8,5%) bemorlarda aniqlandi (3.3.1-rasm).




3.3.1-rasm. BA bilan kasallangan bemorlarning og‘iz-halqum surtmasida mikroorganizmlarning uchrash chastotasi, (%)

Bronxial astmaning turli darajasidagi bolalarda og‘iz-halqum mikrobiotasini o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, BA YPK da *Staphylococcus aureus* 13 nafar (27,6%), *Enterococcus faec.* 11 nafar (23,4%), *Staphylococcus epidermidis* 6 nafar (12,8%) va *Candida albicans* 7 nafar (14,9%) bemorlarda ustunlik qildi (3.3.2.-rasm).




3.3.2-rasm. BA YPK da og‘iz-halqumda mikroorganizmlarning uchrash chastotasi, (%)

BA O'OPKda Staphylococcus aureus 19 nafar (42,2%), Enterococcus faec. 13 nafar (28,9%) bemorda sezilarli darajada ustunlik qildi. Staphylococcus epidermidis 8 nafar (17,8%) va Staphylococcus haemolyticus 7 nafar (15,6%) bemorda aniqlandi. Boshqa turdagi Candida albicans 4 nafar (8,9%), 1 nafar Streptococcus haemolyticus (2,2%), 3 nafar Streptococcus pneumonia (6,7%), 5 nafar Neisseria spp (11,1%) bemorda ozroq miqdorda aniqlandi (3.3.3.-rasm).



3.3.3-rasm. BA O'OPK da og'iz-halqumda mikroorganizmlarning uchrash chastotasi, (%)

BA OPK da Staphylococcus aureus (47,4%), Enterococcus faec (36,8%), Staphylococcus epidermidis (23,7%) va Candida albicans (21,1%) sezilarli darajada ustunlik qilgan. Kamroq miqdorda Staphylococcus haemolyticus (10,5%), Streptococcus haemolyticus (2,3%), Streptococcus pneumonia (10,5%), Neisseria spp (10,5%) aniqlangan (3.3.4.-rasm).



3.3.4-rasm. BA OPK bilan kasallangan bolalarda og'iz-halqumda mikroorganizmlarning uchrash chastotasi, (%)

BA kasallangan bemorlarda mikroorganizmlarning ulushi, %

№	Mikroorganizmlar	Sogʻlom va nazorat guruhi (n=30)		BA (n=130)		BA YPK (n=47)		BA OʻOPK (n=45)		BA OPK (n=38)		P	P1
		abs	%	abs	%	abs	%	abs	%	abs	%		
Bir komponentli assotsatsiya:													
1	Staphylococcus aureus	1	3,3	22	16,9	10	21,3	8	17,8	4	10,5	<0,01	<0,01
2	Staphylococcus epidermidis	2	6,7	14	10,8	5	10,6	6	13,3	3	7,9	<0,01	<0,01
3	Staphylococcus haemolyticus	-	-	8	6,2	3	6,4	4	8,9	1	2,6	<0,01	<0,01
4	Streptococcus haemolyticus	-	-	8	6,2	6	12,8	1	2,2	1	2,6	<0,01	<0,01
5	Streptococcus pneumoniae	-	-	6	4,6	3	6,4	2	4,4	1	2,6	<0,01	<0,01
6	Enterococcus faec.	1	3,3	13	10,0	5	10,6	6	13,3	2	5,3	<0,01	<0,01
7	Klebsiella pneumoniae	-	-	4	3,1	2	4,3	1	2,2	1	2,6	<0,01	<0,01
8	Candida albicans	2	6,7	7	5,4	3	6,4	2	4,4	2	5,3	<0,01	<0,01
9	Neisseria spp	4	13,3	-	-	-	-	-	-	-	-	<0,01	<0,01
	Jami:	10	33,3	82	63,1	37	78,7	30	66,7	15	39,5	<0,001	<0,001

Ikki komponentli assotsiatsiya:													
1	Staphylococcus aureus+ Staphylococcus epidermidis	1	3,3	5	3,8	1	2,1	2	4,4	2	5,3	<0,01	<0,01
2	Staphylococcus aureus+ Staphylococcus haemolyticus	1	3,3	5	3,8	-	-	3	6,7	2	5,3	<0,01	<0,01
3	Staphylococcus aureus+ Streptococcus pneumoniae	1	3,3	3	2,3	-	-	1	2,2	2	5,3	<0,01	<0,01
4	Staphylococcus aureus+ Enterococcus faec.	-	-	4	3,1	1	2,1	1	2,2	2	5,3	<0,01	<0,01
5	Staphylococcus aureus+ Klebsiella pneumoniae	-	-	1	0,77	-	-	-	-	1	2,6	<0,01	<0,01
6	Staphylococcus aureus+ Candida albicans	1	3,3	3	2,3	1	2,1	1	2,2	1	2,6	<0,01	<0,01
7	Staphylococcus aureus+ boshqalar	-	-	2	1,5	-	-	1	2,2	1	2,6	<0,01	<0,01

8	Enterococcus faec.+ Staphylococcus haemolyticus	-	-	2	1,5	2	4,3	-	-	-	-	<0,01	<0,01
9	Enterococcus faec.+ + Candida albicans	-	-	3	2,3	1	2,1	-	-	2	5,3	<0,01	<0,01
10	Enterococcus faec.+ Staphylococcus epidermidis	-	-	2	1,5	-	-	-	-	2	5,3	<0,01	<0,01
11	Enterococcus faec.+ Neisseria spp	-	-	6	4,6	2	4,3	3	6,7	1	2,6	<0,01	<0,01
12	Streptococcus pneumoniae + Candida albicans	1	3,3	3	2,3	2	4,3	-	-	1	2,6	<0,01	<0,01
Jami:		5	16,7	39	30,0	10	21,3	12	26,7	17	44,7	<0,001	<0,00 1
Uch komponentli assotsatsiya:													
1	Staphylococcus aureus+ Staphylococcus epidermidis + Staphylococcus haemolyticus	-	-	1	0,77	-	-	-	-	1	2,6	<0,01	<0,01

2	Staphylococcus aureus + Enterococcus faec. + Candida albicans	-	-	2	1,5	-	-	1	2,2	1	2,6	<0,01	<0,01
3	Staphylococcus aureus + Enterococcus faec. + Neisseria spp	-	-	1	0,77	-	-	1	2,2	-	-	<0,01	<0,01
4	Staphylococcus aureus+ Streptococcus pneumoniae + Candida albicans	-	-	1	0,77	-	-	-	-	1	2,6	<0,01	<0,01
5	Enterococcus faec.+ Staphylococcus epidermidis + Neisseria spp	-	-	2	1,5	-	-	-	-	2	5,3	<0,01	<0,01
6	Streptococcus pneumoniae + Enterococcus faec. + Neisseria spp	-	-	2	1,5	-	-	1	2,2	1	2,6	<0,01	<0,01
Jami assotsatsiya:		-	-	9	6,9	-	-	3	6,7	6	15,7	<0,001	<0,001
Jami:		15	50,0	130	100,0	47	100,0	45	100,0	38	100,0		

Izoh: P - taqqoslash guruhi va astma bilan og‘rigan bolalar guruhi ma'lumotlariga nisbatan farqning ahamiyati

3.3.2-jadvaldagi ma'lumotlarga ko'ra, bolalarda tomoqdan olingan surtma mikrobiotasini o'rganishda mikroorganizmlarning bir, ikki va uch komponentli assotsiatsiyalari mavjudligi aniqlandi. BA bilan kasallangan bolalarda bir komponentli assotsiatsiyalar orasida kasallik qo'zg'atuvchilari uchrash chastotasiga ko'ra quyidagicha: *Staphylococcus aureus* 16,9% ($p < 0,01$), *Staphylococcus epidermidis* 10,8%, *Staphylococcus haemolyticus* 6,2%, *Streptococcus haemolyticus* 6,2%, *Streptococcus pneumoniae* 4,6%, *Enterococcus faec.* 10,0%, *Klebsiella pneumoniae* 3,1% va *Candida albicans* 5,4% taqsimlandi.

Tekshirilayotgan guruhlarda ikki komponentli assotsiatsiyalarning eng ko'p soni o'rta va og'ir persistik astma bilan kasallangan guruhda aniqlandi. *Staphylococcus aureus* ning boshqa mikroorganizmlar assotsiatsiyasi birinchi o'rinda ekanligi aniqlandi. BA O'OPK bo'lgan bolalarda 9 nafar (20,0%) bemorda, BA OPK bo'lgan bolalarda esa 11 nafar (28,9%) bemorda aniqlandi. Eng ko'p *Staphylococcus aureus* *Staphylococcus epidermidis* bilan, ikkinchi o'rinda esa *Staphylococcus aureus* *Enterococcus faecalis* bilan va *Staphylococcus haemolyticus* bilan qo'shilgan assotsiatsiya uchradi. Assotsiatsiyalarning eng ko'p soni BA OPK bo'lgan bolalar guruhida kuzatildi ($p < 0,01$). BA OPK bilan kasallangan bolalarda ikkinchi o'rinda 7 nafar (18,4%) bemorda *Enterococcus faec* bilan assotsiatsiyalar aniqlandi. *Enterococcus faec* + *Neisseria spp* kombinatsiyasi eng ko'p uchradi ($p < 0,01$). Uchinchi o'rinda *Candida albicans* bilan assotsiatsiyalar 4 nafar (10,5%) bemorda aniqlandi ($p < 0,01$).

BAning turli og'irlik darajasidagi guruhlarda uch komponentli assotsiatsiyalarni o'rganish, ayniqsa BA OPK yaqqol namoyon bo'ldi, eng yuqori assotsiatsiya *Enterococcus faecalis* 4 nafar (10,5%) bemorda uchradi (*Enterococcus faec.* + *Staphylococcus epidermidis* + *Neisseria spp*; *Streptococcus pneumoniae* + *Enterococcus faec.* + *Neisseria spp*; *Staphylococcus faec.* *Staphylococcus*); + *Candida albicans*). Ikkinchi o'rinda BA OPK da tilla rangli stafilokokklar bilan assotsiatsiyalar 3 nafar (7,9%) (*Staphylococcus aureus* + *Staphylococcus epidermidis* + *Staphylococcus haemolyticus*; *Staphylococcus aureus* + *Enterococcus naec.* + *Candida albicans*; *Staphylococcus aureus*

+*Streptococcus pneumoniae* + *Candida albicans*). Olingan natijalardan ma'lum bo'ldiki, *Staphylococcus aureus* va *Enterococcus faec.* bronxial astma bilan kasallangan bolalardagi patogen mikroflora assotsiatsiyasining tarkibiy qismi bo'lgan va kasallik qanchalik og'ir kechgan bo'lsa, bu assotsiatsiyalar ishonchli yuqori chastotada uchragan.

Tekshirilayotgan materiallarda *Candida* turkumi zamburug'lari barcha holatlarda etiologik jihatdan ahamiyatli agentlar bilan birgalikda aniqlandi. Shunday qilib, og'iz-halqum mikrobiotasi disbiozining yuqori titri ($10^4/\text{ml}$) va kolonizatsion faolligi, patogen bakterial va shartli patogen floraning qo'shilishi BA ning og'ir kechishiga olib keluvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ushbu holat barcha o'rganilgan holatlarda kasallikning klinik ko'rinishlari va kechishi bilan tasdiqlandi.

BA bilan kasallangan bemorlarda og'iz-halqum shilliq qavatining mikrobial ko'rinishi Firmicutes oilasining *Staphylococcus* va *Streptococcus* turi mikroorganizmlarining sezilarli darajada ustunligi bilan tavsiflanadi. Enterobacteriaceae oilasi va *Enterococcus* oilasi bakteriyalari sonining ko'payishi disbiozning hozirgi manzarasini aks ettiradi va bu oilalarning nafas yo'llarining allergik patologiyasini boshlashdagi ahamiyatini ta'kidlaydi. Bronxial astmada og'iz-halqum mikrobiotaning disbiozi shilliq bo'shliqning surunkali doimiy eozinofil yallig'lanishining kuchayishi belgisidir. Shuning uchun BA da og'iz-halqum mikrobiotasini o'rganish, uning bakterial zararlanishni o'rganish taktikasini aniqlash va bolalarda BA ni davolash samaradorligini kuzatish uchun zarurdir.

§3.4. Bronxial astmaning turli og'irlik darajasidagi bolalarda ichak mikrobiotasining xususiyatlari

Ichak mikrobiotasi bronx-o'pka sistemasining immun reaksiyalarining rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Uning tarkibidagi sifat va miqdoriy buzilishlar tizimli yallig'lanishni saqlab turishga va Th1-xelperlarni Th 2-tip hujayralariga qarshi immunitetning polarizatsiyasiga yordam beradi. Bakteriyalar immun javobda umumiy rol o'ynaydi, shuningdek, ichakning bakterial genofondi nafas yo'llarining genofondidan sezilarli darajada oshib ketishini hisobga olish kerak va bu fakt uning ustuvor ahamiyatini ko'rsatishi mumkin. O'pka va ichak bakteriyalari yangi chaqaloq tug'ilgandan o'xshash spektrga ega bo'lishi mumkin degan taxminlar bor. Biroq, gipotezani tasdiqlovchi ishonchli ma'lumotlar hozircha yetarli emas.

Epidemiologik tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, bolalik davrida mikroblarning ta'siri allergik kasalliklarni keltirib chiqarishda hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi. O'z navbatida, yoshlik davridagi atopiya immun javobning Th2-xelperlar tomon polyarizatsiyalanishi bilan tavsiflanib, astma rivojlanishi uchun xavf omili bo'lib xizmat qiladi.

Ma'lumki, ichak mikrobiotasidagi eng muhim o'zgarishlar chaqaloqning hayotidagi birinchi va 12-oylarida yuz berib, mikrob tarkibining xilma-xilligi o'zgarishi bilan kechadi. Immunologik rivojlanish ko'p jihatdan atrof-muhit mikroblarining ta'siri hamda ichak mikrobiotasi va nafas olish tizimi biotopining shakllanishiga bog'liq. Shu sababli, patogenlar ta'sirining kamayishi nomuvofiq immun javobga olib keladi. Shuningdek, erta yoshda antibiotiklar qo'llanilishi allergiya, sensibilizatsiya va bronxial astma rivojlanishini kuchaytirishi ham aniqlangan.

BA ning turli og'irlik darajasidagi bemorlarda kasallikning qo'zg'alish davrida ichakning mikroblarning tarqalishi o'rganildi, bunga ko'ra disbioz darajasi aniqlandi va ichak mikroflorasi tarkibini tuzatishning kasallikning keyingi kechishiga ta'siri o'rganildi. Klinik ma'lumotlar va ichakdan olingan surtmalardagi

mikroflora tarkibi natijalarini hisobga olgan holda, tekshirilgan bolalarda disbiozning og'irlik darajasi aniqlandi (3.4.1-jadval).

3.4.1-jadval

BA ning turli o'g'irlik darajasida ichak disbiozini aniqlanish chastotasi, %

	Bemorlar soni	I darajali disbioz	II darajali disbioz	III darajali disbioz	IV darajali disbioz
Sog'lom guruh	30	5 (16,6%)	2 (6,6%)	-	-
BA	130	48 (36,9%)	27 (20,8%)	25 (19,2%)	30 (23,1%)
BA YPK	47	24 (51,1%)	9 (19,2%)	8 (17,02%)	6 (12,8%)
BA O'OPK	45	16 (35,6%)	10 (22,2%)	8 (17,8%)	11 (24,4%)
BA OPK	38	8 (21,1%)	8 (21,1%)	9 (23,7%)	13 (34,2%)

Nazorat guruhidagi 7 nafar bolada (n=30) I va II darajali disbioz aniqlandi. I darajali disbioz sog'lom bolalarning 16,6 % da (5), II daraja - disbioz symptomsiz bo'lgan bolalarning 6,6 % da (2) aniqlandi. BA bilan kasallangam bolalar guruhida (130): I darajali disbioz 36,9% (48) , II darajali disbioz 20,8% (27) , III darajali disbioz 19,2% (25) , IV darajali disbioz 23,1% (30) bolada uchradi. Ichak disbiozi og'irlik darajasini bo'yicha o'rganish quyidagi natijalarni ko'rsatdi:

- BA YPK da: I darajali disbioz 51,1% (24) bolalarda, II darajali disbioz 19,2% (9) bolalarda, III darajali disbioz 17,02% (8) bolalarda, IV darajali disbioz 12,8% (6) bolalarda uchradi.

- BA O'OPK da: Disbiozning I darajasi 35,6% (16) bolalarda, II darajasi 22,2% (10) bolalarda, III darajasi 17,8% (8) bolalarda, IV darajasi 24,4% (11) bolalarda uchradi.

- BA OPK da: I darajali disbioz 21,1% (8) bolalarda, II darajali disbioz 21,1% (8) bolalarda, III darajali disbioz 23,7% (9) bolalarda, IV darajali disbioz 34,2% (13) bolalarda uchradi. Olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, BA

